

POSTDA



Gazeta 1930-yil 12-maydan
chiqa boshlagan

НА ПОСТУ ★ AT THE POST

O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Navro'z nashidasi

Yurtim!

Ilhomimga sarchashma o'zing,
Birdek aziz menga yozing ham kuzing.
Bu kun bahoringga she'r aytmoqchiman,
Vatanim, muborak bo'lsin navro'zing.

Yana olam bo'ldi yashil, serfusun,
Yana qizg'aldoqlar ochildi gulgun,
Bu yilgi ko'klaming o'zgacha butun,
Vatanim, muborak bo'lsin navro'zing.

Qattiq qishdan chiqding zax tortib, horib,
Yerdan chiqqan kabi boychechak yorib,
Bag'ringdan muz ketdi hamalga borib,
Vatanim, muborak bo'lsin navro'zing.

Qir yashil, bog' yashil, bo'stondir yashil,
Bahoriy libosda jahondir yashil,
Erk yashil, istiqlool, imondir yashil,
Vatanim, muborak bo'lsin navro'zing.

Boshingda hurriyat quyoshing bordir,
O'z Tug'ro, Bayrog'ing, Yurtboshing bordir,
Maqsading, g'ayrating, bardoshing bordir,
Vatanim, muborak bo'lsin navro'zing.

Yosh chinorsan, o'zni tutib olarsan,
«Ilik uzildi»dan o'tib olarsan,
Yuzlab bahorlarni kutib olarsan,
Vatanim, muborak bo'lsin navro'zing.

Bugun dalalarga qadalgan urug'
Inshoolloh, rizq-u barakot to'lug',
Ey, umid o'lkasi, ertasi ulug' —
Vatanim, muborak bo'lsin navro'zing.

Erkin VOHIDOV,
O'zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri.



Jizzax viloyati. IIB JXX JTSB Patrul-post xizmati batalyoni safdor xodimlari Nurhayot Alijonov va Umid Darmonov jamoat xavfsizligini ta'minlashda doim sergak. Ushbu sohaviy xizmat xodimlarining faoliyati — hushyorlik, mas'uliyat va xalq tinchligi yo'lidagi mehnat ifodasidir. Navro'z shukhi kezib yurgan shu kunlarda joylarda xalq sayillarining xavfsiz va osoyishta o'tishida barcha hamkasblari qatori ularning ham hissi katta.

HAFTA YANGILIKLARI

**PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOEV
OLMALIQ KON-METALLURGIYA
KOMBINATI RAQAMLASHTIRILGAN
BOSHQARUV MARKAZI FAOLIYATI
BILAN TANISHDI**

Davlatimiz rahbari 16-mart kuni Olmaliq kon-metallurgiya kombinatiga tashrif doirasida tog'-kon sanoatida amalga oshirilayotgan yirik investitsiya loyihalarini jadallashtirish yuzasidan yig'ilish o'tkazib, unda 2030-yilga qadar O'zbekistonda oltin ishlab chiqarishni 175 tonnaga, kumushni 500 tonnaga, uranni 15 ming tonnaga, misni 500 ming tonnaga yetkazish bo'yicha belgilangan marralarga erishish uchun barcha imkoniyatlarni to'liq safarbar etish zarurligini qayd etib o'tdi.

«Yoshlik-1» va «Qalmoqqir» konlarida 45 million tonna mis, 5 ming tonnadan ziyod oltin zaxirasi borligi ta'kidlanib, ushbu zaxira sanoatga kamida 100 yilga yetadigan kafolatli xomashyo bazasi bo'lishi alohida ta'kidlab o'tildi.

Shuningdek, Olmaliqda 3-mis boyitish fabrikasi ishga tushirildi.

**KO'CHMAS MULK VA TRANSPORT
OLDI-SOTDISIDAGI YANGI
HISOB-KITOBBLAR TARTIBI**

2026-yil 1-apreldan ko'chmas mulk obyektlari va transport vositalarining oldi-sotdi shartnomalarini tasdiqlashda taraflar o'rtasidagi hisob-kitoblarning amalga oshirilgani notarius va banklar o'rtasidagi elektron ma'lumot almashish yo'li bilan aniqlanadi.

**ERON XALQIGA INSONPARVARLIK
YORDAMI**

O'zbekiston oziq-ovqat mahsulotlari va tibbiy buyumlardan iborat insonparvarlik yordamini Turkmaniston orqali Eronga yetkazib berdi. Eron rasmiylari mazkur tashabbus ikki davlat o'rtasidagi do'stlik va o'zaro qo'llab-quvvatlashning yorqin ifodasi ekanini ta'kidlagan.

Probatsiya xizmati

QOQILGANNI SUYASH KERAK

Xalqimizda «To‘rt oyoqli ot ham qoqiladi» degan naql bor. Hayotda hamma ham adashishi, xatoga yo‘l qo‘yishi mumkin. Muhimi o‘sha xatodan to‘g‘ri xulosa chiqarib, jamiyatda o‘z o‘rnini qayta topishdir. Shunday paytda uni suyash lozim.

Inson qachon jinoyatga qayta qo‘l urmaydi? Qachonki boshqalarga kerakligini his qilsa, oilasi oldidagi mas‘uliyatini anglasa va halol mehnat qilib rizq topish imkoniga ega bo‘lsa. Probatsiya xizmati xodimlarining faoliyati nazorat ostidagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirish va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgani bilan ahamiyatli.

Bu borada Nukus tumani IIB JXX Probatsiya guruhi xodimlari tomonidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda bir qator ijobiy ishlar

ningdek, O.T. ning aholini sut va go‘sh t mahsulotlari bilan ta‘minlash maqsadida tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi uchun moddiy yordam so‘rab qilgan murojaati qanoatlantirilgan.

Bundan tashqari, joylarda o‘tkazilgan sayyor sudlarda Probatsiya guruhi taqdim-nomasiga asosan 42 nafar nazoratdagi shaxs jazoni o‘tash tartiblariga amal qilib, qat‘iy tuzalish yo‘liga o‘tganligi sababli muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilingan.

– Afsuski, berilgan imkoniyatlardan foydalanmaydigan shaxslar ham uchrab turadi. Yil boshidan buyon jazoni o‘tash tartib-qoidalariga rioya etmasdan kelayotgan 2 nafar mahkumning jazosi og‘irroq turiga almashtirildi, – deydi Nukus tumani IIB JXX Probatsiya guruhining katta inspektori, kapitan Dauletbay Xojamuratov.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, probatsiya nazoratidagi shaxslarga jamiyatda o‘z o‘rnini topish-



amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, o‘tgan 2025-yil davomida ularning qayta jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida nazorat ostidagilarning holidan xabar olindi. Ularning bandligini ta‘minlash maqsadida 19 marotaba mehnat yarmarkasi o‘tkazilgan.

Xususan, jazoni o‘tash muassasasidan ozod etilgan X.Q.ga tadbirkorlik bilan shug‘ullanish uchun 11 million so‘m miqdorida dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi berildi. Shu-

Joriy yilda 20 nafar shaxs Probatsiya guruhi hisobiga olinib, 18 nafari hisobdan chiqarildi. Ayni paytda 64 nafar shaxs ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazoni o‘tamoqda. Ularning ijtimoiy-maishiy muammolarini aniqlash va hal qilish, sog‘lig‘ini tiklash, kasbga yo‘naltirish va bandligini ta‘minlashga ko‘maklashish borasida qator ishlar amalga oshirildi. Eng asosiysi, mazkur shaxslarga halol mehnat qilishning afzalliklari tushuntirilyapti.

ga ko‘maklashish faqatgina ichki ishlar organlari xodimlarining vazifasi emas. Ularni keng jamoatchilik, ayniqsa, yaqin qarindoshlari ham qo‘llab-quvvatlashi lozim. Zero, o‘z vaqtida berilgan foydali maslahat, pand-u nasihat har qanday kishining hayotga noto‘g‘ri qarashini ijobiy tomonga o‘zgartirishi mumkin.

Azamat PIRNIYAZOV,
o‘z muxbirimiz.

*Qoraqalpog‘iston
Respublikasi.*

GAZETA SAHIFALANAYOTGANDA

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi qaroriga ko‘ra, **ichki ishlar organlari xodimlarini** terrorizmga va jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda jamoat xavfsizligini ta‘minlash chog‘ida **halok bo‘lgan yoki olgan jarohati tufayli nogiron bo‘lib qolgan deb topish tartibi to‘g‘risidagi nizamga** o‘zgartirishlar kiritildi. Ushbu o‘zgartirishlar haqida gazetamizning keyingi sonida batafsil tanishishingiz mumkin.

Buyuklar hayotidan

SOHIBQIRONIM BOR MENING!



Donishmandlik ramzi

Amir Temur olimlarga xayrixoh munosabatda bo‘lar va bilimi bilan halloligini ko‘rgan olimlarga ishonar edi. U tarixchi va faylasuflar, ilm-fan va ma‘muriy sohada bilimdon bo‘lgan kishilar bilan suhbatlashish uchun ko‘pincha taxtidan ham tushar edi. Amir Temur o‘zidagi kishilarni bo‘ysundirish qobiliyatiga ularni o‘z hukmronligi ostida baxtiyor qilish iste‘dodini ham qo‘shgan edi.

Lui-Matyo Langle.

Shatranj o‘yini

Amir Temur ko‘p vaqtini shatranj o‘yini ustida o‘tkazgan. U o‘z davrining mashhur shatranjchilari bilan bemalol bellasha olgan.

Xilda Xukxem.

Olimlarga e‘tibor

Amir Temur faqat mahalliy mualliflarnigina rag‘batlantirmay, balki o‘z poytaxtiga chet el olimlari va shoirlarini ham jalb etdi hamda ularning hammasiga hotamtoylarcha mukofotlar hadya etar va o‘z shaxsiy e‘tibori va homiyiligi bilan ularni qo‘llab-quvvatlardi. Ana shu olimlarning ayrimlari Amir Temur saltanatida o‘z vatandagidan ko‘proq ta‘minlangan edi.

German Vamberi.

San‘atga rag‘bat

Amir Temur san‘atni yuksak qadrlar edi. Uning o‘zi badiiy asarlar majmuasiga ega edi. Turli toifadagi mashshoqlar, suxandonlar, haykaltaroshlar, bog‘bonlar, rassomlar jahonning har xil davlatlaridan Amir Temur saroyiga to‘plangan edilar.

Xilda Xukxem.

Jasur shaxs

Amir Temur yoshligidayoq aqlining tiniqligi va jasurligi bilan ajralib turardi. Unda harbiy iste‘dod erta namoyon bo‘ldi, u otda yurish mashqini olgan va kamondan otishga mohir edi.

Aleksandr Yuryevich Yakubovskiy.

Faqat haqiqat

Sayyidlar, olimlar, faqihlar va bilim egalari, shuningdek, uyg‘ur baxshilari-yu fors adiblari Sohobqiron-ga safarda ham, uyda ham uzluksiz mulozimlikda bo‘lgan ekanlar. Farmonga muvofiq ulardan bir guruhi muntazam (ravishda) ul Hazratning yurish-turishi va gap-so‘zlarida, mulk, millat va arkoni davlat ahvolidan nimaiki gap bo‘lsa, to‘la-to‘kis yozib borardilar. Bu ishda mubolag‘a qilinmasin, deb alohida ta‘kidlab buyurilgan edi. Shu yo‘sinda turkiy manzuma va forsiy qissa, har biri ul Hazratning yurish-turishidagi eng yirik (voqealarni) qamrab olgan nazm va nasr qalamiga olingan edi.

Sharafuddin Ali Yazdiy.



Navro'z — mening taqdirimda

YANGI KUN FARZANDI

Navro'zda bahor nafasi sezilib, tabiat uyg'onib, yer yuziga yangilanish ruhi kirib keladi. Bu ayyom azaldan yangi kun, yangi hayot ramzi sifatida qadrlanib keladi. Shuning uchun ham Navro'z ismi xalqimiz orasida ezgulik, umid va baxt timsoli sifatida e'zozlanadi. Ayniqsa, aynan shu qutlug' kunda tavallud topgan insonlar uchun bu sana qo'shaloq bayramga aylanadi.

Ichki ishlar organlari tizimida ham ana shunday baxtiyor insonlar talaygina. Ular yurtimiz tinchligi va xalqimiz osoyishtaligini ta'minlashdek sharaflari vazifani ado etib kelmoqdalar. Shundaylardan biri IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli, Namangan viloyati Pop tumanida joylashgan 7552-harbiy qismning nazoratchilari vuzodi, 2-nazoratchilar guruhi, 3-seksiya 3-toifali nazoratchisi, kichik serjant Navro'z Abduvoitovdir.

U 1997-yil 21-mart kuni Qashqadaryo viloyatining

Qamashi tumanida dunyoga kelgan. Tabiat uyg'onib, zaminda yangilanish nafasi ufu-rib turgan shu kunda tug'ilgan bolaga bobosi Navro'z deb ism qo'yadi. Chunki bu farzand oilaga ham yangi umid va yangi hayot olib kelgandek edi.

Maktabni muvaffaqiyatli tamomlagan Navro'z yigitlik burchini Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'iro'tumanini Jasliq qo'rg'onida joylashgan IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli 7553-harbiy qismda o'taydi. Bu yerda intizomliligi, mas'uliyatliliigi va topshirilgan vazifalarni puxta bajarishi



Suratda: kichik serjant Navro'z Abduvoitov hamkasbi kichik serjant Farrux Boltayev bilan.

bilan komandirlari e'tiborini qozonadi. 2018-yildan buyon esa 7552-harbiy qismda shartnoma asosida xizmat qilib kelmoqda.

– Xizmatga qabul qilingan vaqtimda menga katta serjant Hojiakbar Husanov murabbiy sifatida biriktirilgan edi, – deydi u. – Ustozimning saboqlari men uchun katta maktab bo'ldi.

Bugungi kunda kichik serjant Navro'z Abduvoitovning o'zi ham ustoz maqomida. U yosh harbiy xizmatchilarga

jangovar xizmat sir-asrorlarini o'rgatib, ularni tarbiyalashda bo'linma komandirlariga yaqindan yordam bermoqda.

Harbiy xizmatda u talabchanligi, tashabbuskorligi va izlanuvchanligi bilan ajralib turadi. Jangovar xizmatni o'tash jarayonida harbiy intizom, qonunlarga qat'iy rioya qildi.

– Kichik serjant Navro'z Abduvoitov bo'linmamizdagi eng namunali harbiy xizmatchilardan biri. U yoshlarga kasb sirlarini o'rgatib, ular-

ni burchga sadoqat ruhida tarbiyalab kelmoqda, – deydi harbiy qism komandiri, podpolkovnik Husan Bekchanov.

Navro'z Abduvoitov na-faqat harbiy xizmatda namuna, balki oilaning haqiqiy tayanchi. U shirindan-shakar farzandlarining mehribon va g'amxo'r otasi. Turmush o'rtog'i Mohinur Vohidova uni oilaparvar va jonkuyar inson deb ta'riflaydi.

– Bir so'z bilan aytganda, u oilamiz ustuni, – deydi turmush o'rtog'i. – Navro'z bayrami oilamizda alohida shukuhga ega. Chunki oilamizda bu sana qo'shaloq shodlikka to'lgan alohida kun sifatida qadrlanadi.

Bahorning qutlug' kunida dunyoga kelgan kichik serjant Navro'z Abduvoitov bugun yurtimiz tinchligi va xalqimiz osoyishtaligini ta'minlash yo'lida fidoyilik bilan xizmat qilmoqda. Uning faoliyati go'yo ismining ma'nosini tasdiqlayotgandek: yangi kun – yangi umid, yangi hayot.

Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Ehtirom

ONALARNING QUVONCHI

Bag'dod tumanining «Jalayer» mahallasida istiqomat qiluvchi Tojixon aya Dolimova bu yil 73 bahorni qarshi oladi. Onaxon tuman shifoxonasida ko'p yillar hamshira bo'lib ishlagan. Turmush o'rtog'i Ma'murjon Dolimov bilan hamjihatlikda 3 qiz va 1 o'g'ilni munosib tarbiyalab, voyaga yetkazishdi.



O'g'li podpolkovnik Elbekjon Dolimov 20 yilki, ichki ishlar organlarida samarali xizmat qilib kelmoqda. Tojixon aya farzandlari tufayli ko'p va xo'p rahmatlar eshitgan. Ammo bu gal Xalqaro xotin-qizlar kuni bayrami arafasida eshitgan rahmatidan boshi osmonga yetib, 10 yoshga yoshargandek bo'ldi.

Bayram kuni onaxonga Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Aziz Tashpulatov nomidan Minnatdorlik xati topshirildi.

– Farzand o'stirib, uning ortidan rahmat eshitsang, butun umr chekkan

zahmatlaring unutilib, charchoqlaring chiqib ketarkan, – deydi onaxon quvonchini yashirolmay. – Xalqiga munosib xizmat qilayotgan shunday pahlavon o'g'lim borligidan faxrlanam.

Farg'ona tumani IIB 1-sonli huquq-tartibot maskani patrul-post xizmati inspektori, safdor Jahongir Shokirov ham o'z burchini namunali bajarib, safdoshlariga o'rnak bo'lib kelayotgan o'g'lonlar sirasiga kiradi. Ichki ishlar vazirining Jahongirning onasi Mavludaxon Shokirova nomiga yo'llagan

Minnatdorlik xati ham bayram arafasida egasiga topshirildi.

Minnatdorlik xatida bildirilgan samimiy dil so'zlarini farzand o'stirib, uning kamolini ko'rishni orzu qilgan Mavludaxon aya ulkan mukofot sifatida qabul qildi. Quvonchi ichiga sig'may, ko'rsatilgan ehtirom uchun vazirlik rahbariyatiga tashakkur izhor etdi.

Ma'lumot uchun: uning farzandi, safdor Jahongir Shokirov ham

20 yildan buyon patrul-post xizmatida samarali faoliyat ko'rsatib keladi. Bugun tajribali xodim sifatida yoshlarga murabbiylik qilib, kasb sir-asrorlarini baholi qudrat o'rgatib kelayotgani esa tahsinga sazovordir.

– 20 yilki, xalq bilan hamnafas xizmat olib borib, jamoat tartibini saqlab kelaman, – deydi safdor Jahongir Shokirov. – Bugun onamning ko'zidagi quvonchni ko'rib, farzand sifatida g'ururlandim. Vazirlik rahbariyati-

ga mingdan-ming rahmat aytaman. Bizdek oddiy xodimlarning kamtarona xizmatimizni qadrlab, onamizga ehtirom ko'rsatgani uchun tashakkur. Bu ehtiromni o'zimning sadoqatli xizmatim bilan, albatta, oqlayman.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.
Farg'ona viloyati.



Женщина и общество

ОБРЕСТИ ВЕРУ В СЕБЯ



Совместный проект «Я сильная женщина!», реализуемый ГУВД города Ташкента во взаимодействии с заинтересованными ведомствами и общественными организациями, нацелен на оказание психологической, юридической и социальной помощи женщинам, оказавшимся в сложной жизненной ситуации.

Очередные мероприятия проекта были направлены на открытие новых возможностей для участниц, укрепление их самооценки и поддержку в личностном росте.

Программа дня началась с мастер-класса по созданию авторских ювелирных изделий. Участницы, проявившие интерес к этому направлению, получили консультации по основам бизнес-планирования для запуска собственного дела.

Следующим этапом стала встреча в Республиканском центре реабилитации и адаптации женщин. Врач-нарколог с помощью тематических видеоматериалов наглядно продемонстрировала пагубное влияние алкоголя и психоактивных



веществ на организм, провела сессию вопросов и ответов.

В Республиканском центре профессиональных компетенций участницам представили учебные программы по востребованным на рынке труда специальностям: швейному, кондитерскому и парикмахерскому делу, а также технике детского массажа. Здесь же состоялся выездной прием представителей хокимията и сотрудников,

ответственных за реализацию проекта. С каждой женщиной провели индивидуальную беседу, в ходе которой определили меры по решению волнующих ее вопросов.

Мероприятия проекта помогают женщинам обрести самое ценное – веру в себя. Ведь уверенная в своих силах женщина – прочный фундамент благополучного общества.

Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.

По маршрутам духовности

ПРИКОСНОВЕНИЕ
К ИСТОРИИ

В рамках программы изучения древнего наследия родного края учащиеся Каракалпакского академического лицея МВД Республики Узбекистан совершили экскурсию в археологический комплекс Миздахкан.



Комплекс расположен в 3–4 км к югу от города Ходжейли. Он раскинулся на трех холмах, занимая внушительную площадь около 200 гектаров. Оказавшись в этом уникальном месте, история которого насчитывает более двух тысяч лет, лицеисты окунулись в атмосферу святынь, веками формировавших духовный облик региона. Особое внимание было уделено таким сооружениям, как мавзолей Ережеп Халифа (IX–XI вв.) и уникальный памятник архитектуры XII–XIV вв. – полуподземный мавзолей Мазлумхан-сулу. Большой интерес вызвал легендарный курган Жумарт-кассаб, символизирующий самоотверженное служение людям.

– Для нас это не просто экскурсия, а урок уважения к своим корням. Посещая такие места, мы остро чувствуем преемственность поколений, – говорит учащийся 2-го курса Карлибай Жумабеков.

Мероприятие не ограничилось осмотром достопримечательностей. По возвращении в лицей ребята приступили к творческому осмыслению увиденного: в сочинениях и эссе они размышляли о роли истории в формировании личности.

Гулназ УСЕНОВА,
педагог.

Экологический контроль

В республике ежегодно вводятся стандартные сезонные ограничения на рыбную ловлю. В этот период под запретом находится не только промышленный, но и любительский лов. Данные меры необходимы для успешного нереста рыбы и естественного восстановления популяции.

В нынешнем году с 11 марта по 31 мая запрещена ловля рыбы в реках Амударья и Сырдарья, с 26 апреля по 10 июня – в естественных водоемах Каракалпакстана и Хорезмской области, а во всех остальных естественных водоемах страны запрет будет действовать с 16 апреля по 31 мая.

Подразделения Инспекции государственного экологического



контроля Национального комитета по экологии и изменению климата совместно с правоохранительными органами проводят мероприятия по борьбе с браконьерством. По выявленным противоправным фактам оформляются материалы, а нарушители

привлекаются к ответственности в соответствии с административным или уголовным законодательством.

Показательным примером стал процесс в суде Уртачирчикского района Ташкентской области. Здесь оглашен приговор лицам,

занимавшимся незаконным выловом рыбы на территории Туябугузского водохранилища.

Как следует из материалов дела, в ходе ночного рейда выявлен факт добычи 22 особей рыбы с использованием электрического тока. Этот варварский метод не оставляет шансов экосистеме: мощный разряд уничтожает не только взрослую рыбу, но и икру, личинок и кормовую базу в радиусе поражения. Природе причинен ущерб в размере 165 миллионов сумов.

По решению суда двое правонарушителей признаны виновными по ч. 4 ст. 202 УК. Судом постановлено взыскать с виновных и сумму причиненного экологического ущерба.

Соб. корр.

Ташкентская область.

ЭТО УЖЕ НЕ РЫБАЛКА...



Yoshlar — kelajak bunyodkori

HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI TIZIMLI PROFILAKTIKA

Poytaxtimizning Chilonzor tumanida yoshlar bilan ishlash, ularning muammolarini hal etish va huquqbuzarliklarning oldini olish masalasi yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Tumandagi 55 ta mahallada istiqomat qiluvchi 42 mingdan ziyod yigit-qizlarni qamrab olgan tizim har bir yoshning taqdiri uchun mas'uliyat demakdir.

– Bugungi kunda asosiy e'tiborimizni yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratganimiz, – deydi tuman IIOFMB HPB VY va YPTeg katta inspektori, kapitan Sanjar Qo'qonov. – Bu jarayonda mahalla, ta'lim muassasasi va oila hamkorligida ishlash ustuvor vazifamiz. Zero, biz nafaqat nazorat qiluvchi, balki ularni qiynayotgan muammolarni hal etishda yaqin ko'makchi va maslahatchi bo'lishga intilyapmiz.

Shu maqsadda tumandagi barcha maktablarda «Xavfsiz va sog'lom ta'lim dargohi» kompleks tezkor-profilaktik tadbirlari doirasida 10–11-sinf o'quvchilari o'rtasida «Davomat» va «Tig'» tadbirlari muntazam o'tkazib kelinmoqda. Shuningdek, yoshlarimizning turli psixotrop moddalarga qaram bo'lib qolishining oldini olish maqsadida tegishli chora-tadbirlar olib borilmoqda.

«Og'ir» toifadagi yoshlar va otaliqqa olingan yigit-qizlar bilan yakka tartibda ishlash orqali ularning hayotda o'z o'rnini topish masalasi ham bugunning eng dolzarb masalasidir. Xususan, tumandagi 71 nafar otaliqqa olingan yoshlarning muammolari mutasaddi rahbarlar va IIOFMB mas'ullari tomonidan

o'rganilib, ijobiy hal etilmoqda. Shuningdek, mehnat bozoriga kirib kelayotgan bitiruvchilarning bandligini ta'minlash, ularni «Ibrat farzandlari» loyihasi doirasida chet tillariga o'qitish va xorij davlatlariga ishga yo'naltirish borasida tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan.

Profilaktik tadbirlarning samardorligi raqamlarda ham aks etmoqda. «E-Ijtimoiy profilaktika» tizimi orqali 2026-yilning dastlabki ikki oyida 573 nafar yosh bo'yicha xulosa



Bundan tashqari, poytaxtimizdagi «Renessans» kino uyida ham keng qamrovli uchrashuv tashkil etildi. Unda tuman hokimi, Toshkent shahar va tuman prokurori hamda IIOFMB boshlig'i ishtirokida probatsiya hisobidagi shaxslar, shuningdek, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabalari va yoshlar yetakchilari bilan dildan suhbat qilindi. Muloqot davomida bir guruh yoshlarning yechimini topmay kelayotgan muammolari joyida hal etilib, mutasaddilarga kerakli topshiriqlar berildi. Yoshlarga giyohvandlik domiga tushib qolmaslik bo'yicha hayotiy tavsiyalar berilib, tadbirkorlik qilish istagidagi nazorat ostidagi shaxslarga davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar tushuntirildi. Tuman hokimi yoshlarga o'z maqsadlariga erishish uchun bilim va astoydil harakat zarurligini uqtirarkan, yurtimizda ta'lim va kasb-hunarga yo'naltirish borasidagi islohotlarning ahamiyatini alohida qayd etdi.

Davlatimiz tomonidan yaratilayotgan mana shunday imkoniyatlardan to'g'ri xulosa chiqargan yoshlar esa jamiyatda o'z o'rnini topmoqda. Masalan, probatsiya nazoratida bo'lgan, o'zini ijobiy tomondan ko'rsatgan A.D.ning jazo muddatidan ilgari shartli ravishda ozod etilishi xato qilgan yoshlar uchun berilayotgan imkoniyatdir. Bunday tizimli yondashuv yoshlarning ertangi kunga bo'lgan ishonchini mustahkamlab, ularni noto'g'ri yo'ldan ketishdan asrab qolishga xizmat qiladi.

Amalga oshirilayotgan bu kabi keng ko'lamli chora-tadbirlar har bir yigit-qizning jamiyatda munosib o'rin topishi uchun ahamiyatli. Yoshlarning bo'sh vaqti mazmunli tashkil etilib, ularda kasb-hunarga muhabbat va qonunga hurmat hissi uyg'otilsa, har qanday yot g'oya va illatlar o'z-o'zidan chekinadi.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



berilib, ularning muammolarini hal etish choralari ko'rilmogda. Shu bilan birga, huquqbuzarlik sodir etgan 139 nafar yosh bilan manzilli suhbat o'tkazilib, ularning kelgusida jinoyat yo'lga kirib qolmasligi bo'yicha ogohlantirish ishlari olib borilgan.

«Rahbar va yoshlar» uchrashuvlari ham muammolarga yechim topishning amaliy maydoniga aylanmoqda. Ahamiyatlisi shundaki, bu kabi muloqotlar davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ilgari surilgan «Payshanba – yoshlar kuni» doirasidagi profilaktik tadbirlar bilan uyg'un holda olib borilmoqda. Xususan, joriy yilning 26-fevral kuni o'tkazilgan navbatdagi «Rahbar va yoshlar» uchrashuvida Chilonzor tumani IIOFMB boshlig'i hamda tuman prokurori ishtirokida yigit-qizlarning murojaat va takliflari tinglandi. Ochiq va samimiy ruhda o'tgan uchrashuvda yoshlarni qiynayotgan masalalar yuzasidan huquqiy tushuntirishlar berilib, ta'lim va bandlik masalalari atroflicha muhokama qilindi. Har bir murojaat yuzasidan aniq vazifalar belgilanib, mas'ullarga tegishli ko'rsatmalar berildi.

Qo'shqanotlar

OFITSERLAR OILASI

Mohinur endigina 14 yoshga qadam qo'ydi. O'tgan yiliyoq ingliz tilidan B2 sertifikatini yuqori ball bilan qo'lga kiritdi. Tarix, adabiyot, geografiya kabi fanlardan chuqur bilimga ega. Fe'li ham og'ir-bosiq, jiddiy. Shu bois sinf rahbari uning «Kelajakda ichki ishlar organi xodimi bo'laman» degan niyatini juda to'g'ri qaror deb baholadi. Chunki u shunday muhitda ulg'aymoqda. Otasi – podpolkovnik Isroil Jumanov IIV Maxsus operatsiyalarni muvofiqlashtirish boshqarmasi Jizzax viloyati bo'yicha Maxsus otryadi bosh mutaxassisi. Onasi – Dilnoza Jumanova viloyat IIB Raqamli texnologiyalar va huquqiy statistika xizmati huquqiy statistika markazi katta inspektori, unvoni kapitan.

Ota-ona to'rt farzandning to'n-g'ichi bo'lgan Mohinurdagi qat'iyat sabab uning tergovchi bo'lishiga ishonch bildirishadi. Otajon va Islomjon esa maktabda a'lo baholarga o'qish barobarida, erkin kurash va taekvondo bilan shug'ullanadi. Ular ham ota-onasi izidan ketishmoqchi. Kenja qiz – Azizaxon esa shifokorlikka qiziqadi.

Mutolaa – bolalarning sevimli mashg'uloti. Isroil Jumanov har maoshidan farzandlari uchun kitob xarid qiladi va o'qishlarini rag'batlantiradi. Asli uning onasi Ulbozor opa kitobsevar ayol, shu fe'li o'g'liga, nevaralariga o'tgan. «Ko'p kitob o'qish menga Multi Level imtihonida gapirish va yozish ko'nikmasidan yuqori ball olishimga yordam berdi», deydi Mohinur.

Albatta, farzand ulg'aytirish oson emas. Dilnoza opa ba'zan

kasb taqozosi tufayli farzandlari bilan odatdagidan kamroq vaqt o'tkazishi mumkin. Ammo baxtini kasbidan topgan ayol farzandlarini ulg'aytirishda ham ahil va mehribon jamoasining yordami katta bo'lganini yashirmaydi.

Dilnoza Jumanovaning bu kasbga qiziqishida otasining yaqin do'sti, podpolkovnik Sag'dulla Izbosarovning ta'siri katta bo'lgan. Shu bois oliygohni tamomlagach, xizmat faoliyatini Jizzax viloyati IIB huzuridagi Qo'riqlash boshqarmasida katta ish yurituvchi lavozimida boshladi. Shunga ham 20 yil bo'ldi. 2019-yilda xotin-qizlar inspektori shtati joriy etilgach, xizmatini davom ettirdi. Hozirgi vazifasida 2024-yildan buyon ishlab kelmoqda. Xizmati davomida IIV va viloyat IIB tomonidan bir necha bor ko'krak nishonlari,



faxriy yoriqlar, pul mukofotlari bilan taqdirlangan.

Isroil Jumanov Toshkent Oliy harbiy-texnik bilim yurtini tamomlagan. Ichki ishlar organlarida 1999-yil avgust oyidan buyon xizmat qilib keladi. Dastlab viloyat IIB Aloqa bo'limi tezkor aloqa tarmog'i muhandisi bo'lib xizmat qildi. 2006-yil fevral oyidan buyon hozirgi lavozimida. Uning xizmat faoliyati ham ko'p bor e'tirof etilgan. Ular o'z baxtini, hayotda o'z o'rinlarini topishga sabab bo'lgan kasblaridan nihoyatda mamnun.

...Har tong Jumanovlar yashaydigan xonadon derazalaridan quyoshning zarrin nurlari yangi kunning iliq nafasini olib kelar ekan, uyda hayot yana jonlanadi. Ota-ona yurt xizmati sari shoshadi, farzandlar esa ularning munosib davomchisi bo'lish orzusida maktab tomon oshiqadilar. Bu oilaning orzu-maqсадlari ham boshqa oilalarniki kabi sodda va ulug' – tinch va ozod yurtda baxtli yashash, farzandlarning yorug' kelajagini ko'rish...

Muqaddas SAPAROVA,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

IIV ta'lim muassasalarida

DAVR BILAN HAMQADAM

Axborot xavfsizligini ta'minlash, raqamli muhitdagi huquqbuzarliklarning oldini olish va bu sohada malakali mutaxassislar tayyorlash bugungi kunning muhim vazifalaridan biriga aylandi. Shu bois Jizzax akademik litseyida joriy o'quv yilida «Axborot xavfsizligi» guruhi tashkil etildi.



Ta'lim sifatini oshirish maqsadida guruh o'quvchilari viloyat ichki ishlar organlarining axborot xavfsizligi bo'linmalari xodimlariga birlashtirilib, haftada bir marta reja asosida o'quv-amaliy mashg'ulotlari o'tkazilmoqda. Guruh rahbari Shavkat Jo'rayev va fan o'qituvchisi Javohirxon Habibulayev tomonidan bo'linmalarda qisqa muddatli o'quv-amaliy stajirovkalar tashkil etilishiga ham alohida e'tibor qaratilgan.

«Axborot xavfsizligi» guruhining 12 nafar o'quvchisiga alohida o'quv dasturi asosida informatika va axborot texnologiyalari, matematika fanlaridan nazariy-amaliy dars mashg'ulotlari o'tilmoqda. Darslardan so'ng o'quvchilarga 2 ta fandan to'garak tashkil etilgan bo'lib, kiberxavfsizlik asoslari chuqur o'rgatilyapti. Guruhning barcha o'quvchilari «Bir million dasturchi» loyihasi doirasida sertifikatga ega.

Ta'lim jarayonini sifatli tashkil etish maqsadida bizning «Umumta'lim fanlari» kafedrasida hamda viloyat IIB Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi, Jizzax shahridagi Sambhram universitetining «Axborot texnologiyalari fanlari» va «Axborot texnologiyalari muhandisligi», O'zMU Jizzax filialining «Kompyuter ilmlari va dasturlashtirish» kafedralari bilan o'zaro hamkorlik shartnomalari tuzilib, kafedra filiallari tashkil etilgan.

Akademik litseyda «Axborot xavfsizligi» guruhining tashkil etilishi zamonaviy talablardan kelib chiqqan muhim qadam hisoblanadi. Bu tashabbus kelgusida raqamli texnologiyalar sohasida jinoyatlarga qarshi samarali kurash olib borishga qodir, yuqori bilim va malakaga ega yosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Olimjon AVALBOYEV,
kafedra boshlig'i,
dotsent.

OMON-OMON ZAMON SHAROFATI

El orasida «Bozorga bor, baxtingdan ko'r» degan naql yuradi. To'g'ri, bozor baxt ulashiladigan joy emas. Lekin u yurtning to'kinchiligini, ma'murchiligini, fayz-u barakasini o'zida namoyon etadi. Uyimga yaqin bo'lgani uchun men ko'pincha Bekobod bozoriga tushaman. Sirdaryo qirg'og'iga tutashib ketgan bu obod savdo maskaniga kirib borarkansiz, rastalar noz-ne'matlarga to'lib-toshganidan hayratga tushasiz.

NARXI HAM HAMYONBOP

– Po'sht...

Aravakashning hayqirig'ini eshitib o'zimni chetga olaman. Kartoshka, piyoz, guruch qoplar bilan liq to'la arava bazo'r ilgarilaydi. Go'sht rastalarini oralayman. O'nlab zamonaviy sovutkichli peshtaxtalarda qo'y, mol go'shti, qazi-qarta chiroyli qilib terib qo'yilgan. Qassob yigitlardan birini gapga solaman. U go'sht mahsulotlari savdosi keyingi uch-to'rt yilda ikki baravar oshganini aytadi. Ilgari bitta so'yilgan buqani bir hafta sotishgan bo'lsa, hozir ikki kunda tugatishyapti ekan. Odamlarning go'shtga bo'lgan ehtiyoji oshganidan, yoz oylarida so'qim topish qiyinlashib qolarkan.

Nariroqdagi baliq va tovuq go'shtlari sotiladigan rastalarga kirib boraman. Do'ngpeshona, zog'orabaliq, ilonbosh, cho'rtan, laqqa baliqlar naviga qarab ajratib qo'yilgan. Narxi ham hamyonbop, kilosi turiga qarab yigirma yetti mingdan oltmish ming so'mgacha. Xaridorlar aslo kam emas. Tovuq go'shti rastalarida esa parranda go'shtini turli yo'sinda xaridorgir etib taxlab qo'yishgan. Tovuq va baliq go'shtlari Sirdaryo viloyati

hamda Bekobod tumanining o'zidan chiqar ekan.

SAMARQAND NONIDAN QOLISHMAYDI

Mazkur bozorda sotiladigan nonlar Samarqand, Qo'qon nonlaridek dong'i ketgan bo'lmasa ham, chiroyda, xushxo'rlikda ulardan aslo kam emas. Bozor atrofida yigirmaga yaqin novvoyxona mavjud bo'lib, kecha-yu kunduz faoliyat ko'rsatadi. Ular bozor ichidagi kattagina non rastasiga non yetkazib berishdan tashqari, atrofda o'nlab qishloqlardan to'y-hashamlar uchun buyurtma olishadi. O'ziga xos ta'mi, bejirimligi bilan mashhur patirlar, obinonlarning o'nlab xili bor. Sotuvchilar orasida o'rta yoshli, kulganida tilla tishlari yaltirab turadigan ayol bilan suhbatlashaman.

– Kuniga mingta non sotgan paytimiz ham bo'lgan, – deydi u jilmayib. – Aravalarda peshma-pesh yetkazib berishadi. Issiq-issiq sotaveramiz.

Non rastalarida buxanka, baton kabi ovro'pacha nonlarga ham duch kelamiz. Ularning savdosi ham obinonnikidan kam emas. Keksalar aytganidek, nonning seroblighi yurt farovonligining belgisi.



«OVCHI»NING KARTOSHKASI

Bekobod Tojikiston chegarasidagi shahar. Bu yerda So'g'd viloyatining «Ovchi» qishlog'ida yetishtiriladigan kartoshka mashhur. Qizil tusli, qayroqsimon ushbu mahsulot taomda novvotdek tuslanishi, ajoyib ta'mi bilan har qanday xorijlik turdoshini raqobatda yenga oladi. Rastalarni aylanar ekanman, barcha joyda «Ovchi» deb yozilib, narxi balandroq qilib qo'yilgan kartoshkalarga duch keldim. Nahotki, qo'shni yurtdagi mo'jaz qishloqda bir yilda minglab tonna kartoshka yetishtirilsa? Hartugul, bir sotuvchi yigit rostini aytdi. Sotuvchilar mollarini tezroq va qimmatroq sotish uchun o'zimizning mahalliy kartoshkalarni ham «Ovchi»ni deb aldashga harakat qilishar ekan. Sabzavot bozorida Sirdaryo viloyatining sabzisi, Zominning piyoz mashhur ekan. Ham arzon, ham sifatli.

ISHKOMDAN ENDI UZILGANDEK

Bekobodda bozor ichida mevalarni ulgurji sotadigan

bozorcha bor. Bu yerda atrofda tumanlardan kelgan chakana sotuvchilar har kuni eng sarxil mevalarni arzonroq narxda sotib olishadi. Hatto qishning kunida ham uzumni deyarli yozdagi narxda sotib olish mumkin. Hayron qolasan kishi. Yanvar oyida kilosi o'n besh-yigirma ming so'mdan husayni topsa bo'ladi. Meva bozorida mahalliy olma, uzum, noklarimiz xorijning turdosh mevalaridan xaridorgirroq. Boisi ulardan ko'ra shirinligida. Buni ko'rib o'zingcha faxrlanib qo'yasan.

Ha, bozorni oralab g'ururlandigan jihat shundaki, undagi eng sifatli, xushta'm mahsulotlarning aksariyati o'zimizniki! Jannatmonand yurtimiz zaminining saxiyligi, dehqonlarining mirishkorligi, usta novvoylar, chorvadorlarning mehnatiga tan bermay iloj yo'q. Baliqchilik, parrandachilik nihoyatda rivoj topayotganidan ko'nglingiz yorishadi. Beixtiyor «Fayz-u barakanga ko'z tegmasin, jonajon yurtim!» deging keladi. Bu, avvalo, Yaratganning inoyatidan, qolaversa, mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik-osoyishtalik sharofatidan.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.



NAVRO'Z KELIBON...

*Navro'z kelibon, jumla jahon nozlanajakdir,
Oftob qizitib, asta-sekin yozlanajakdir.*

*Yashnar tabiat, dasht-u adir lola ichinda,
Yurtim — chamanim o'zgacha pardozlanajakdir.*

*Irmoq kuladir, yelga o'pich bersa binafsha,
Maysa quyosh taftida tannozlanajakdir.*


*Bir lahza eshit qumri-yu bulbulning navosin,
Sho'x-sho'x taralib, yalla-yu shahnozlanajakdir.*

*Qaynar sumalak, varrak uchar, to'y-u tomosha,
Dillar quvonib, soz ila parvozzlanajakdir.*

*Javlon urishar davra tuzib necha yigitlar,
Qizlar bezanib, husn ila mumtozzlanajakdir.*

*Dunyoda odam qadri baland, sevs Vatanni,
Yurt ichra yana hurmat-u e'zozlanajakdir.*

Jumaniyoz JABBOROV,
O'zbekiston xalq shoiri.



Qo'shiq QR-kodi.

Tuman IIB faoliyatidan

MAHALLA HAMJIHATLIGI – XAVFSIZ HAYOT POYDEVORI

Andijon viloyatining Baliqchi tumanidagi 66 ta mahallaning har biri doimiy e'tibor markazida. Hududlarda olib borilayotgan profilaktik ishlar natijasida joriy yil davomida 68 ta jinoyat fosh etilishining o'ziyoq bu yo'nalishdagi sa'y-harakatlar samaradorligini ko'rsatadi. Shuningdek, tergov va sud organlaridan qochib yurgan 8 nafar shaxs qo'lga olindi. Bedarak yo'qolgan 2 nafar fuqaroning topilib, oilasi bag'riga qaytarilgani esa huquqni muhofaza qiluvchi idoralar va jamoatchilikning hamkorlikdagi izlanishlari natijasi bo'ldi.



Targ'ibot va tushuntirish ishlari samarasi o'laroq, oilaviy kelishmovchiliklar sabab munosabatlar taranglashib ketgan 23 ta oilaning yarashtirilishi, yana 46 ta xonadonda yuzaga kelgan turli nizolarga barham berilgani jamiyatda bag'rikenglik va

hamjihatlik muhitini mustahkamlashga xizmat qildi. Shu bilan birga, «Tig'» tadbiri davomida 24 nafar shaxs qo'lga olinib, ularning yonidagi turli tig'li buyumlar olib qo'yildi. Bu esa ehtimoliy og'ir jinoyatlarning oldini barvaqt to'sish imkonini berdi.

Albatta, bunday natijalar tasodif emas. Buning zamirida ichki ishlar organlari xodimlari bilan joylardagi jamoatchilik vakillari o'rta-sidagi yaqin hamkorlik yotadi. Mahallalarda nuroniylar, jamoatchilik faollari va otinoyilarning ishtiroki keng. Hududdagi muhim masalalar ular bilan maslahatlashgan holda hal etilmoqda. Ayniqsa, oilaviy mojarolarni bartaraf etishda ularning hayotiy tajribasi va ta'sirchan so'zi katta ahamiyat kasb etayotir. Profilaktika inspektorlarining aholi orasida faol ishtirok etishi esa bu hamkorlikni yanada mustahkamlamoqda.

Bu holatni «Qahramon» mahalla fuqarolar yig'ini misolida ham ko'rish mumkin. Mazkur hudud profilaktika inspektori, leytenant Shohruxbek Xudoyberdiyev garchi yosh bo'lsa-da, mahalladagi hayotning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Uning odamlar bilan samimiy muloqoti, turli tadbirlarda mahalladoshlar bilan birga ishtirok etishi aholining ishonchini qozongan.

– Shohruxbek mahallamizning haqiqiy a'zosiga

aylanib qoldi, – deydi mehnat faxriysi Ikromjon Mutalov. – To'y bo'ladimi yoki aza marosimi, barchasida mahalladoshlar bilan yelkama-yelka xizmat qiladi. Shu bois odamlar har qanday savol yoki muammo bilan unga murojaat qiladi. Natijada ko'plab masalalar mahallaning o'zida hal bo'lmoqda. Ayni shu hamjihatlik tufayli hududda huquqbuzarlik holatlari deyarli kuzatilmaydi va mahalla «yashil» toifada saqlanib turibdi.

– Mahallamizda 3174 nafar aholi istiqomat qiladi, – deydi leytenant Shohruxbek Xudoyberdiyev. – Ularning ijtimoiy va iqtisodiy ahvolidan doimiy xabardorman. Chunki ko'pincha turli muammolar aynan shu omillar ta'sirida paydo bo'ladi. Amaliy ko'makka muhtoj oilalarga mahalla yetiligi yordamida ko'mak berib kelyapmiz. Shu yo'l bilan 70 ta oilani tikuvchilik sohasiga yo'naltirib, bandligini ta'minlashga erishdik. Mahallamizdagi 8 ta ko'chaning har birida jamoatchilik vakillari bor. Ularni mahalladoshlarining o'zlari saylagan va ularga katta ishonch bildirishadi. Bu

esa tartib-intizomni saqlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, hududda yechim talab qiladigan masalalar ham bor. Masalan, ichkilikka ruju qo'ygan 4 nafar shaxs, shuningdek, nizoli 2 ta oila mavjud. Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan 3 nafar fuqaro bilan ham alohida tartibda ish olib borilmoqda. Ularning jamiyatda munosib o'rin topishiga ko'maklashish esa bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Baliqchi tumanida mahalla faollari, nuroniylar va huquqni muhofaza qiluvchi idoralar o'rtasida shakllangan hamkorlik muhiti jinoyatchilikning oldini olishda samarali mexanizmga aylanmoqda. Inson taqdiriga befarq bo'lmaslik, muammolarni joyida hal etish, aholi bilan ishonchli muloqot o'rnatish – mana shu tamoyillar hududda barqarorlikni ta'minlashning eng ishonchli kafolati bo'lib xizmat qilmoqda.

Saminjon HUSANZODA,
o'z muxbirimiz.
Andijon viloyati.

«Turmush» tadbiri

AYOL BILAN MUSTAHKAM QO'RG'ON

Oqqo'rg'on tumani IIB tomonidan mazkur tadbirni o'tkazishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, tuman oila va xotin-qizlar bo'limi, mahallalar uyushmasi hamda diniy ishlar bo'yicha idora vakili hamkorligida barcha mahallalarda xonadonbay o'rganishlar olib borilmoqda. Asosiy e'tibor ijtimoiy himoyaga muhtoj, nizoli va notinch oilalar ahvolini o'rganishga qaratilib, aniqlangan muammolar joyida bartaraf etishga harakat qilyapmiz.

Hamkorlikda amalga oshirilayotgan ishlarda asosiy e'tibor notinchlik va nizolar sabablarini o'rganishga qaratilmoqda. Sabablar o'rganilgach, arziyas vajlar tufayli nizolashgan 5 ta oila yarashtirildi. Farzandlari uchun aliment to'lovidan bosh tortgan 3 nafar ota bilan tushuntirish ishlari olib borilganidan so'ng ular to'lovni o'z vaqtida to'lab borishni zimmasiga olishdi. Er-xotin o'rtasidagi 2 ta mol-mulk bilan bog'lik nizo o'zaro kelishuvchilik asosida joyida bartaraf etildi. Oila a'zolari tomonidan tazyiq

va zo'ravonlikka uchragan 5 nafar ayolga himoya orderi berildi.

Afsuski olib borilayotgan tushuntirishlarga qaramasdan 126 ta oila vakillari nizolarini sudlarda ko'rib chiqish bo'yicha murojaat qilishgan. Shundan 97 tasi nikohni bekor qilish, 16 tasi aliment undirish, 6 tasi uyga kiritish, 5 tasi oilaviy janjal va 2 tasi otalikni belgilash bilan bog'liq masalalardir.

Sudlar ayollar huquqlarini ta'minlab berar, adolatni qaror toptirar, ammo buzilgan oilani adolatli qaror



deb bo'lmaydi. Negaki biri otasiz, boshqasi onasiz qolgan farzandlar qalbidagi dog'ni hech bir qaror ketkaza olmaydi. Shu bois, biz oilaviy nizolarni sudga qadar barham toptirishga, uning muqaddasligini saqlab qolishga, oila sha'niga dog'

bolajonlar qalbiga yara tushmasligi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solyapmiz.

Dildora FAYZULLAYEVA,
tuman IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektor, mayor.

Toshkent viloyati.



Ma'naviyat va ma'rifat darsi

Dunyoda shunday bir buyuk so'z borki, u inson yuragidagi nur kabi doim to'qinlanib turadi, tan-ga quvvat, ruhga rohat, inson hayotiga faxr-iftixor bag'ishlaydi. Bu – barchamiz uchun birdek aziz va muqaddas «Vatan» so'zidir.

Vatan – kindik qoni to'kil-gan muqaddas dargoh sana-lib, insonda shu zaminga nisbatan vatanparvarlik tuyg'usini shakllantiradi. Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek: «har bir kishining tug'ilib o'sgan shahar va mamlaka-tini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug'ilgan, o'sgan joyini jonidan ortiq suyar... Biz turkistonliklar o'z vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi, arab-lar Arabistonlarini, qumlik issiq cho'llarini, eskimoslar shimol taraflar, eng sovuq qor va muzlik yerlarni bosh-qqa yerlardan ziyoda suyar-lar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi Turonlik oson yerlarga o'z vatanlarini tash-lab hijrat qilurlar edi». Dar-haqiqat, Vatan – ajdodlardan avlodlarga qoladigan eng buyuk, bebaho meros, eng aziz xotira.

Nafsilamrini aytganda, Vatanga bo'lgan mehr, sa-doqat daxldorlikdan bosh-lanadi. Daxldorlik tuyg'usi kishini olam bilan, o'z xalqi, Vatani bilan mustahkam bog'laydigan rishtadir. U uyqudagi odamni uyg'otish, yagona maqsad sari yetaklash qudratiga ega.

Inson ulg'aygani sayin uning vatanparvarlik tuyg'usi va tasavvurlari ham kengaya boradi. Avvalo uy, so'ngra mahalla, qishloq yoki shahar hamda butun mamlakat Vatan ekani qalban anglab olinadi.

Vatanga daxldorlik tuyg'usi – muqaddas qad-riyat. U insonni ijtimoiy ye-timlikdan asrovchi man-zil, ma'naviy kamolot, ha-yot maktabi, farovonlik va baxt-saodat o'chog'ini chin yurakdan his etib tu-ruvchi tuyg'udir. Mavloni Fuzuliyning, «Mening bit-ta hayotim bor, bordi-yu mingta hayotga ega bo'lgan taqdirimda ham, hamma-sini Vatan uchun sarflagan bo'lur edim», degan so'zlari har birimiz uchun bebaho vatanparvarlikdir.

Yurt ravnaqi va taraqqi-yotining imkoniyatlari, shon-shuhrati, obro'-e'ti-bori ham shu millat kishilari Vatanga daxldorlik tuyg'usi-ni darajasi bilan bog'liqdir. Ajdodlarimiz uchun Vatanga,

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan jadal islohot-lar jarayonida vatanparvar-lik e'tiqodi har birimizning amaliy ishlarimizda, faol fuqarolik pozitsiyamizda namoyon bo'lishi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda har bir inson faoliya-tida onglilik bilan fidoyilik birlashmog'i zarur.

Yangi O'zbekistonda amal-ga oshirilayotgan izchil islo-

vatlash, kasbga yo'naltirish va bandligini ta'minlash, tashabbuslarini rag'batlan-tirish borasidagi ishlar talab darajasida tashkil etilmaga-nidan dalolat bermoqda.

Vatanni himoya qilish er yigitning muqaddas burchi sanaladi. Shu bois xalqimiz azal-azaldan o'g'il bolaning matonatini toblash, jismo-nan sog'lom, ruhan yetuk qilib voyaga yetkazish, ona

mustahkam zamin yaratgan bo'lamiz.

Xalqimiz tinchlikni yuk-sak qadrlaydi, uni orzu-intilishlari, ezgu niyatlari ro'yobga chiqishining muhim kafolati, deb biladi. Shu ma'noda, dunyoning turli mintaqalarida turli taloto'plar, xunrezliklar avj olayotgan hozirgi qiyin va o'ta murakkab bir davrda mamlakatimiz ichki ishlar organlari xodimlari tinch-lik-osoyishtalik va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, ijt-i-moiy-siyosiy vaziyat barqa-rorligini saqlash maqsadida fidoyilarcha xizmat qilisha-yotganini alohida e'tirof etmoq joiz. Negaki, bu ham Vatanga sodiqlikning bir ko'rinishi. Zero, shu aziz Vatan barchamizniki, uni avaylab-asrash barcha-mizning asl farzandlik bur-chimizdir.

Ichki ishlar organlari xo-dimlari el-urt tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash yo'lida tunu kun fidoyilarcha xizmat qiladi. Ularning qalbi yurtga muhabbat, burchga sadoqat tuyg'ulari bilan lim-mo-lim to'la. Shu yurtning, shu elning xotirjamligini o'ylab, jinoyatchilikka qarshi kurashish yo'lida jonini tikib xizmat qilayotganini dil-dili-dan his qiladi.

Xulosa o'rnida aytganda, Uchinchi Renessansni yarat-ishda vatanparvarlik har bir insonning o'zi tug'ilib o'sgan yurtini, elini e'zozlash, uning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy rivoj-lanishi haqida qayg'urish, g'amxo'rlik qilish, taraqqi-yotiga o'zining munosib hissasini qo'shish, o'z dav-lati, mamlakatining mus-taqilligini saqlash uchun jon kuydirish va kerak bo'lganda unga o'z hayotini bag'ish-lashga yo'llaydigan yuksak ma'naviylik mezonidir.

**Azizjon FAYZIYEV,
podpolkovnik.**



Qoraqalpoq
tilidagi
matn.



Rus tilidagi
matn.

VATANGA DAXLDORLIK – TARAQQIYOT OMILI



eliga muhabbat muqaddas tuyg'u hisoblangan. Ular Vatan, xalq manfaati, milliy qadr-qimmat, or-nomus ma-salasini hamma narsadan ustun qo'yishgan, hattoki shu muqaddas maqsad yo'li-da jonlarini qurbon qilishni o'zlari uchun sharaf deb bilishgan.

Vatanni sevish – uni ulug'lashdan tashqari, uning qadr-qimmatini, har qarich yerini, mustaqilli-gini himoya qila bilishdir. Shayx Najmiddin Kubro haqiqiy vatanparvar, jasur qahramon bo'lgani tarixdan ma'lum. Millat boshiga og'ir kunlar tushganida, yurtini tashlab ketishni, jonini asrab qolishni o'zi uchun nomus deb bildi. Mo'g'ul istilosiga qarshi jang maydonlarida mardona kurashib, halok bo'ldi.

Vatanparvarlik shunchaki so'zda emas, balki amal-da, xatti-harakatlarimiz-da namoyon bo'lgandagina taraqqiyotning hal qiluvchi omiliga aylanishi mumkin.

hotlar yosh avlodda vatan-parvarlik va milliy g'urur tuyg'usini yangi bosqichga ko'tarishni Uchinchi Renes-sansning eng muhim ehtiyo-jiga aylantirdi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yoshlarda vatanparvarlik tarbiyasi, milliy ruhni yuksaltirish hamon dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Chunonchi, ma-m-lakatimizda yoshlarni vatan-parvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qi-lish borasida muayan ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan tadbirlar tahlili yoshlar-ni keng qatlamlariga daxl-dor bo'lgan dolzarb masa-lalar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishi uchun mu-nosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo'llab-quv-

Vatanga sadoqat ruhida tar-biyalashga alohida e'tibor qaratgan. Hatto onalarimiz allasi orqali beshikda yot-gan go'dak ruhiga ona yurt-ga muhabbat va sadoqat tuyg'usi singdirib kelingan.

Vatanga muhabbat – uning sarhadlarini turli tah-didlardan himoya qilmoq, unda yashovchi xalqning tilini, e'tiqodini, urf-odatla-rini sevmokdir. Yosh avlodni ayni shu ruhda tarbiyalash, ayniqsa, ular ongu shuurida buzg'unchi mafkura va yot g'oyalarga qarshi ma'naviy immunitetni shakllantirish g'oyat muhim ahamiyatga ega. Chunki buyuk ajdodla-rimizning ibratli hayoti va boy ilmiy-badiiy merosi, dono o'gitlari vositasida o'sib kelayotgan yosh avlodning ongi, ruhiyatini har qanday zararli mafkuralar ta'siridan himoya qilib, ularda Vatanga muhabbat, sadoqat, burch kabi oliy tuyg'ularni shakl-lantirsa, mamlakatimizning jahon hamjamiyatida ye-takchi o'rinni egallashiga



Kitobimiz nashrdan chiqdi

NAVRO'Z TUHFASI

«Adolat egiladi, bukiladi, ammo sinmaydi» iborasi haqiqat va adolat qanchalik qiyin vaziyatga tushmasin, baribir g'olib chiqishini anglatadi. Bu o'lmas tamoyil adolatning nohaqlik oldida vaqtincha chekinishi mumkinligini, ammo butunlay taslim

bo'lmasligini, haqlik hamisha ustun kelishini bildiradi.

Birlashgan tahririyat jamoasi tomonidan tayyorlangan navbatdagi ushbu to'plamda mustabid tuzum davrida nohaq qatag'onga uchrab jabr ko'rgan va adolat tantanasi

bilan keyinchalik oqlangan ichki ishlar xodimlari haqida 2024–2025-yillarda nashrlarimizda e'lon qilingan maqolalar jamlangan. O'ylaymizki, har bir hikoya va undagi taqdiralar qismati sizlarni aslo befarq qoldirmaydi!



QOPQOQNI YOPADIGAN VAQT KELDI

yoki «yangicha tarbiya»dan ogoh bo'laylik

Bir millatni boshqarish to'rt farzand tarbiyasidan osonroq.

Uinston Cherchill.

Falanchining bolasi yaxshi odam bo'libdi, degan gapni eshitgan kishilarning barchasi ham quvonadi, deb bo'lmaydi. Chunki birov bunga havas qilsa, boshqasi hasad qilishi mumkin. Bundan tashqari, farzandlari odobidan ko'ngli to'lmayotgan ota-onalar ham borki, bunday kezda ularning dili g'ashlanib qoladi. Sababi, Uinston Cherchill aytganidek, tarbiya oson ish emas.


Biz ko'pincha tarbiyasiz bolalarni ko'rsak, ota-onasi yaxshi tarbiya bermabdi-da deb qo'ya qolamiz. Aslida, bu fikr biryoqlama. Negaki, bu dunyoda ota-onalar tomonidan farzandlarga eng ko'p beriladigan narsa bu – tarbiya. Lekin tarbiya berishga emas, ko'proq olishga bog'liq. Afsuski, farzandlarga beriladigan narsalar ichida u eng kam olinadi. Buning asl sababini ulug'alloma Imom G'azzoliy shunday ta'riflaydi: «Ey, farzand, nasihat qilish oson, ammo uni qabul qilish qiyin. Zero, bu nasihat ko'ngil talabiga ergashib yuruvchi kishi tabiatiga achchiq tegadi, og'ir botadi. Buning sababi – shariatda man qilingan narsalar o'sha nafs ilgida yurgan kishi ko'ngliga mahjub va yoqimlidir».

Inson borki, nafaqat ta'mi, mazasi tiliga yoqqanini, balki yolg'on bo'lsa-da, qulog'iga yaxshi eshitilganini qabul qiladi. Shundan bo'lsa kerak, shirin gap, maqtov va hazillar quloqqa to'siqsiz kiradi. Hatto qayta eshitgisi kelib, o'sha maqtovchilarni qidirib qolishi ham bor gap. Bugun internet orqali uzatilayotgan ayrim xabarlar odamlarga xush keladigan, ko'zi va qulog'ini yayratib yuboradigan tarzda tarqatilmoqdaki, buning ortidagi g'araz niyat va maqsadlar sira ko'rinmaydi, sezilmaydi.

Buzg'unchi axborot yangi ixtirolardan emas. Uning tarixi juda uzun. Tarixchilar Chingizxon hujumdan oldin bostirib kiradigan

hududlariga savdogar, tilanchi qiyofasidagi josuslarini yuborib, «Mo'g'ullar armiyasi behad ko'p, son-sanog'i yo'q, buning ustiga, judayam berahm va shafqatsiz» degan vahimali mish-mishlar tarqatishganini qayd etishadi. Hozirgi paytda esa bunday yolg'onlar ijtimoiy tarmoqlar orqali kontent va postlar shaklida tarqatilmoqda.

Amerikalik sotsiolog tadqiqotchi Jozef Overton «Jamiyat uchun mutlaqo yot va jirkanch g'oyani ham sekin-asta «norma»ga aylantirish mumkin», deydi. Buzg'unchi kontent yaratuvchilar aynan shu texnologiyadan foydalanishadi. Ular uch yo'lni tanlashadi. Birinchisi, taqiqni buzish, keyingisi muhokama qilish, uchinchi esa ko'nikish hosil qilish yo'li.



E'tibor qilgan bo'lsangiz, agar qaysidir kontent yoki postga sal ko'proq vaqt ajratib, bir muddat kuzatib qolsangiz, keyingi ikki yoki uch-to'rtta boshqa postdan so'ng yana o'sha o'zingiz ko'rgan postga o'xshash xabar yoki ma'lumot taqdim etiladi. Bu, sirtidan qaraganda, qiziquvchining talabini qondirayotgandek ko'rinsa-da, tarqatuvchi avvaliga bu orqali o'z g'oyasining xaridorini topib oladi. Keyin esa fikr bildiring deya, o'sha postni muhokamaga qo'yadi, ko'ruv-

chining munosabatiga qarab, ularning ichidan saralanganlarini tavsiya etadi va asta-sekin yuqorida aytilganidek, ko'nikmani shakllantiradi.

Yoshlarning behayo suratlarga, hazil-huzulli kontent va postlarga moyil bo'lishi tabiiy. Shuning uchun avvaliga pardalangan, keyinchalik yarim-yalang'och, oxirrog'ida to'shakdagi holatlar ham ekranda ko'rsatilib, ularning beti qotib boradi. Oqibatda ibo, hayo va uyat hissi butkul o'ldiriladi. Endi axloqsizlik, behayolik oddiy holga aylanadi.

Yaqinda bir tanishim sovchilikka boribdi. O'zaro kelishuvdan so'ng to'y tadorigi boshlanibdi. Bo'lajak kelin-kuyov telefon raqamlarini almashib, kunda-kunora gaplashib



gaplashar ekan-ku, nega buni avval bizga aytmadinglar?», – desa, onasi: «Shuyam gapmi, hozirgi zamonda hamma yozishadi-ku?!», debdi.

Bu milliy qadriyatlarimiz toptalgani va yo'qolib borayotganiga yaqqol misol emasmi?

Boz ustiga, bugungi kunda hatto televideniya er-xotinlik munosabatlari, yotoqxona mavzulari yarim «hazil» niqobi ostida keng targ'ib qilinayotgani juda achinarli hol. Agar shu ketish bo'lsa, hademay, ovro'pocha hayot tarzi ommalashib ketishi hech gap emas.

Shuning uchun bunday «yangicha tarbiya»dan juda ehtiyot bo'lishimiz, yoshlarimizni asrab-avaylashimiz kerak. Albatta, buning uchun internetni yopib yoki butkul taqiq qo'yib bo'lmaydi. Ammo farzand tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratishimiz, bunday kontent va postlarning milliyligimizga, urf-odatlarimizga yot ekanligini tushuntirishimiz kerak va shart.

Xo'sh, buni qanday qilamiz?

Asal solingan idishning og'zi ochiq tursa mingta pashsha qo'nadi. Mingta pashshani tutib yoki haydab bo'lmaydi. Ammo idishning qopqog'i yopib qo'yilsa, ming pashshadan bittasi ham aslga qo'nolmaydi. Shunday ekan, farzandlarimizning qulog'ini yot g'oyalardan bekita olsak, uyimiz, ongimiz va tafakkurimizni lang ochib qo'ymasdan, o'zimizning o'g'itlarimiz bilan to'ldirib, ustini yopib qo'ysak, hech bir yot g'oya va begona udumlar uyimizga kirib kela olmaydi.

Shuhrat RO'ZIYEV,
o'z muxbirimiz.



SHOHI ZINDA – TIRIK SHOH SINOATI

Shohi Zinda, ya'ni «Tirik shoh» maqbaralar majmuasi o'tmish ajdodlarimiz tarixi va taqdirida alohida o'rin tutadi. U ko'hna Samarqandning janubiy qismida joylashgan. Afrosiyobni tomosha qilgan sayyohlar uning janub tomoniga yursalar, qiyalikda joylashgan, moviy gumbazlari quyosh nurida yarqirab turgan Shohi Zinda ansambliga duch keladilar.

Shohi Zinda majmuasida 40 dan ortiq maqbara mavjud bo'lib, yuqori qism maqbaralari Sohibqiron Amir Temur tomonidan XIV asr oxiri va XV asr boshlarida barpo qilingan. Pastki qismi Sohibqiron nabiralari Ulug'bek

Shohi Zinda ansamblining shakllanish davri eramizning XI asrlaridan boshlangan. Musulmon tarixchilarining yozishlaricha, tirik shoh – Muhammad payg'ambarimizning amakivachchasi Qusam ibn Abbosga berilgan unvondir. Samarqandlik

tarixchi Abul Haki-miyning yozishicha Qusam ibn Abbos payg'ambarimizning muborak yuzlarini ko'rgan oxirgi kishidir. Qusam ibn Abbos VIII asrlarda arab lashkarlari tarkibida Samarqandga kelgan va bu yerda dini islomni targ'ib qilgan. Bir kuni Qusam ibn Abbos namoz ibodati bilan mashg'ul bo'lib turganida kofirlar hujumiga



Muhammad Mirzo tomonidan XV asrda qurilgan. Masjid-majmua – Shohi Zinda (Qusam ibn Abbos) nomi bilan nomlangan. Bu zot Payg'ambarimiz alayhissalomning amakizodalari, xulqlari va shakl-shamoyil jihatdan u zotga juda o'xshagan qarindoshlaridir. Hazrati Qusam ibn Abbosni Shohi Zinda («Tirik shoh») deb atashadi, qariyb ming yildan buyon bu nom xalq o'rtasida yashab kelmoqda.

«Samarqand marvaridi» degan sharaflı nomga sazovor bo'lgan Shohi Zinda ansambli nafaqat tarixiy-me'morchilik yodgorligi, balki mashhur allomalar, avliyolar, malikalar, lashkarboshilarning abadiy oromgohi hamdir. Shohi Zindaning yana bir qimmatli tomoni shundaki, bu yerda Samarqandning qariyb uch ming yillik tarixi mujassam.

uchragan va uzilgan boshini qo'liga olib g'or orqali yerning tagiga tushib ketgan. U to qiyomatga qadar tirik yurar emish. Qusam ibn Abbos kirib ketgan g'orning oldida unga atab qabr yasalgan va XI asrda uning ustiga maqbara qurilgan.

1220-yili ro'y bergan mo'g'ul istilosi Shohi Zinda maqbarasi taqdirida ham ayanchli rol o'ynadi. Mug'ullar bu yerdagi ko'pgina inshoot va qabrlarni ostin-ustun qilib tashladilar. Ammo ular ham Qusam ibn Abbos qabriga tegishdan cho'chidilar. Lekin qarovsizlik oqibatidan bu qabr ham ancha xarobaga aylangan edi. XIV asrning boshlariga kelib samarqandlik din ahlari va rahbarlarning sa'y harakatlari bilan Qusam ibn Abbosning qabri ustiga qaytadan maqbara qurildi, ziyoratxona va chillaxona ham qayta ta'mirlandi.

Samarqand taxtiga Amir Temur o'tirgach bu yerdagi ko'pgina, xarobaga aylangan inshootlar o'rniga yangisini qurirdi, ayrimlarini qayta ta'mirlatdi. Shuningdek, yangi masjid ham barpo etdi.

Tarixchilar fikriga ko'ra, darvoza va peshtoqni Mirzo Ulug'bekning o'zi bunyod qildirgan, ammo uni o'z nomiga emas, kichik o'g'li Abdalaziz nomiga yozdirgan. Darvozadan kirgan sayyohlar chap tomonga burilsa XIX asrda qurilgan masjidga, o'ng tomonga yursa 1813-yili Davlat qushbegi tomonidan qurilgan kichik madrasaga kiradi. Madrasaning qarama-qarshi tomonida esa 1910-yili usta Sodiq tomonidan qurilgan yozgi masjid joylashgan. Bu inshootlardan o'tgan sayyohlar g'ishtlardan terilgan zinapoyalardan yuqorilaydilar va ularning qariyb o'rtasiga yetganida chap tomondagi hashamatli maqbaraga duch kelishadi. Yaqin-yaqinlarga cha ko'pchilik bu maqbaraga Mirzo Ulug'bek davrida Samarqandda yashagan turkiyalik astronom Qozizoda Rumiyl dafn etilgan deb hisoblar edi. Ammo qabrlar ochib ko'rilganida ularda ayollar dafn etilgani ma'lum

Bu maqbaralarning yonidan o'tgan sayyohlar sohibqironning singlisi Shirinbeka og'a maqbarasiga kirib borishadi. Ajoyib va nafis bezaklar bilan qoplangan bu hilxona o'z salobati bilan diqqatni tortadi. Shirinbeka og'a maqbarasining qarama-qarshi tomonida esa Shodimulk og'a va uning onasi qabrlarini o'z ichiga olgan maqbara joylashgan. Bu maqbarani samarqandlik me'morlar ustalar Bahriddin va Shamsiddin hamda buxorolik usta Zayniddinlar barpo qilganliklari yozib qo'yilgan.

Tarixiy manbalarda keltirilishi-cha, Shodimulk og'a 1371-yili, uning onasi Turkon og'a 1383-yili qazo qilgan. Maqbaralardan o'tgan sayyohlar yo'lakning chap tomonida yonma-yon qad rostalagan ikki noma'lum maqbaraga duch kelishadi. Ularning birida uni yaratgan usta Ali Nasafiyning nomi saqlanib qolgan. Ansamblning eng qadimiy qismida Amir Temurning eng jasur lashkarboshilaridan amir Burunduq abadiy uyquda yotibdi. Uning maqbarasi taxminan 1380-yillarda barpo qilingan. Amir Burunduq qabridan o'tib o'ng tomonga yurilsa Qusam ibn Abbos maqbarasiga kirib boriladi.



Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra bu yerdagi masjid, chortoq va maqbarani Amir Temurning xotini Tuman og'a barpo qildirgan bo'lib, o'zi ham shu yerda abadiy uyquda yotibdi. Tuman og'a maqbarasi-

ning qarshi tarafida shaxsi noma'lum, ammo yoshligida qazo qilgan malikaning qabri saqlangan. Eng to'rda esa ulamo Xoja Ahmadning maqbarasi bo'lib, bu eng so'nggi inshoot hisoblanadi.

Umida MAMADALIYEVA
tayyorladi.

Samarqand.
1870-yil.



KECHA va BUGUN

Toshkent.
2025-yil.



Фахрийлар — фахримиз

УЧ ПОСБОННИНГ
БИРИ

Шофиркон тумани «Дўрмон» маҳалласида Ибрагимовлар оиласи алоҳида тилга олинади. Оила бошлиғи Убайд бобо деҳқончилик орқали турмуш ўртоғи билан тўрт ўғил ва икки қизни тарбиялаб вояга етказди. Барчасини ўқитиб, уйли-жойли қилди. Ўғилларидан уч нафари ички ишлар органлари ходими бўлишди. Файзулло ва Саъдулло акалар пенсияга чиқишган. Бахшулло ака эса айни пайтда вилоят ИИБ ЖХХ ЖТСБ ППХ батальонида хизмат қилади.

Истеъфодаги майор Файзулло Ибрагимов туман ИИБда профилактика инспектори, катта инспектори ва паспорт бўлинмаси бошлиғи лавозимларида узоқ йиллар самарали хизмат қилди. Қайси лавозимда хизмат қилмасин, касбига содиқ қолиб, ҳалол ишлади, ўнлаб шогирдлар тайёрлаб, уларга ўзининг бой тажрибасини ўргатди.

Файзулло ака пенсияга чиққанидан кейин ҳам қўл қовуштириб ўтирмади. Беш йил тадбиркорлик билан шуғулланди. Сўнг туман Мудофаа ишлари бўлимида бошлиқ ўринбосари вазифасида саккиз йил фаолият кўрсатди. Бугунги кунда ўзи туғилиб ўсган маҳаллада раислик қилиб келмоқда.

Маҳалламизда 3250 нафар аҳоли аҳил-иноқ яшамоқда, – дейди Ф. Ибрагимов. – Ўтган йилни сарҳисоб қиладиган бўлсак, битта йўл-транспорт ҳодисаси ва тан жароҳати билан боғлиқ жиноят содир этилди, ажримлар камайдди. Энг асосийси, 13 та ажрим ёқасидаги оила яраштирилди. Бу ишда хотин-қизлар фаоли билан нуронийлар ҳамкорлиги, қолаверса, профилактика катта инспекторимиз, майор Дониёр Имомовнинг тажрибалари жуда асқатди. Камбағаллик реестерида турган Мақсад Саидованинг невараси Истамов Меҳриддин-жоннинг суннат тўйини ҳомийлар ёрдамида ўтказдик. Ўтган ўқув йи-

лида мактабни битирган 14 нафар йигит-қиз олий ўқув юртларига, 11 нафари эса техникум ҳамда ҳунар мактабларига ўқишга кирди. Худудимизда «Зарҳалтекс» корхонаси фаолият кўрсатаётгани боис бизда ишсизлик муаммоси йўқ, десак, ҳам бўлади. Чунки корхонанинг етмиш фоиз ишчиси маҳалладошларимиз.

Суҳбатдошимизнинг таъкидлашича, бу йил маҳалла ҳудудида қатор бунёдкорлик ишлари амалга оширилган. Хусусан, Ислон тараққиёти банки лойиҳаси асосида 12 км ичимлик суви қувири тортилмоқда. Яна 4,5 км ички йўллар асфальтлаштирилади, 1,5 км ариқ бетонлаштирилади, 8 та эски трансформатор

янгисига алмаштирилади, симёғочлар ҳам алмаштириш арафасида. Худуддаги 3-сонли умумтаълим мактабида капитал таъмирлаш ишлари олиб борилмоқда. Бундан ташқари, яқинда аҳолининг таклиф ва истаклари инобатга олиниб, маҳалла чорраҳасида светофор ўрнатилди.

Шунингдек, Ф.Ибрагимов бошчилигида нуронийлар ва ҳомийлар томонидан маҳалладаги 51 нафар камбағаллик реестерида турганлар ва 14 нафар I гуруҳ ногиронлари ҳолидан доимий равишда хабар олинмоқда. Мактабларда ҳам тарғибот ишларини олиб бориб, ўқувчиларнинг давомати, ўзлаштириши билан қизиқади. Дарс қолдирган болаларнинг ота-оналари

билан суҳбатлашиб, сабабларини ўрганиб, муаммолари бўлса, бартараф қилиш чораларини кўряпти. Ота-оналар йиғилишини ўтказишда доим бош-қош бўлади. Бундан ташқари, аҳоли орасида ва мактабларда жиноятларнинг олдини олишга қаратилган тарғибот ишларини кучайтириш ҳам мунтазам йўлга қўйилган.

Бир сўз билан айтганда, истеъфодаги майор Файзулло Ибрагимов каби инсонлар ўзларининг эзгу ва хайрли ишлари билан одамлар кўнглига ҳамиша ёруғлик олиб киришади. Келажак авлод ҳам бундай инсонларга ҳавас билан улғаяди.

Мирзокул АҲАДОВ,
ўз мухбиримиз.
Бухоро вилояти.



Сурагда: Ф. Ибрагимов ёшлар етакчиси
Элзод Маннонов билан.

Soha fidoyilari

HAMISHA SERGAK

Navbahor Fayziyeva huquqni muhofaza qilish organlaridagi faoliyatini 2019-yilda Zarafshon shahar Qo'riqlash bo'limida boshlagan edi. Xizmatda erishgan yutuqlari uchun 2024-yilda «O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining fidoyi xodimi» ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

Ayni paytda Navoiy viloyati IIB huzuridagi Qo'riqlash xizmati alohida batalyoni 1-otryad safdor xodimi. U xizmatni «Navoiy-azot» aksiyadorlik jamiyatining nazorat postida olib boradi.

– Jamoamizda ayollar ko'p emas, ammo ularning o'рни alohida sezilib turadi. Navbahor o'z vazifasiga juda mas'uliyat bilan yondashadi, tartib-intizomga qat'iy rioya etadi. Nazorat postida xizmat qilish xodimdan doimo e'tiborli va sergak bo'lishni talab etadi. Navbahor qiyin vaziyatlar-

da ham o'zini og'ir-bosiq tutadi. Ishchilar bilan tushuntirish olib boradi, – deydi hamkasbi, kichik serjant Obid Xudoyqulov.

Lavhamiz qahramonining asosiy vazifasi korxona hududiga kirib-chiqayotgan xodimlar va transport vositalarini belgilangan tartib asosida tekshirish, olib kirish yoki olib chiqish taqiqlangan qurilma va buyumlarni aniqlash hamda xavfsizlik talablariga rioya etilishini ta'minlashdan iborat. Shu kunga qadar korxona hududidan

ruxsatnomasiz ravishda ehtiyot qismlarni olib chiqishga bo'lgan ko'plab urinishlarni o'z vaqtida aniqlab, tegishli tartibda rasmiylashtirgan. U xizmati davomida sergakligi tufayli biror marta ham korxona mol-mulkinging noqonuniy olib chiqilishiga yo'l qo'ymagan.

Kichik serjant Navbahor Fayziyeva bilimlarini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratadi. Hozirda Navoiy Innovatsiyalar universitetida sirtidan tahsil olib kelmoqda. Jamoadoshlari uni tirishqoqligi, intizomliligi va xushchaqchaqligi bois hurmat qilishadi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



► 21 March — Navruz holiday



Valuable information about the history of Navruz is provided in ancient sources such as Abu Rayhan Biruni's «The remaining signs of past generations», Abulqasim Firdawsi's «Shahnameh», Mahmud al-Kashgari's «Diwin lughit al-turk», Abu Bakr an-Narshakhi's «The history of Bukhara», and Omar Khayyam's «Nowruznama». The lines of the great poet Alisher Navoi, «May every night of yours be a night of Qadr, and every day be Navruz!» testify to how significant and precious this holiday is for the people.

► Dedicated Dprofessionals Always vigilant

Navbahor Fayziyeva began her career in law enforcement in 2019 and currently serves in the security services of the Navoiy region. She is stationed at the control point of the «Navoiyazot» joint stock company, where she is responsible for monitoring personnel and vehicles, preventing the entry of prohibited items, and ensuring overall site safety.

In recognition of her outstanding contributions, she was honored with a «Dedicated employee» badge in 2024. According to her colleague, Obid Khudoykulov, Fayziyeva is known for her high level of discipline, composure in difficult situations, and sharp focus. Throughout her service, she has successfully intercepted numerous attempts to illegally remove corporate property. While maintaining her professional duties, she is also pursuing higher education at the Navoiy innovation university to further enhance her expertise.

► Culture and Enlightenment


Opening of the Center of Islamic Civilization

The official opening ceremony of the Center of Islamic Civilization in Uzbekistan took place with the participation of President Shavkat Mirziyoyev.

The Center serves as a unified educational space where visitors can witness the pearls of Uzbekistan's ancient history and civilization, providing a visual testament to the intellectual and cultural potential of the Uzbek people.

This unique complex spans nearly 10 hectares, with a total usable building area of 50,000 square meters. The facility features specialized exhibition halls, including:

- «The Pre-Islamic Period on the Land of Uzbekistan»;
- «The First and Second Renaissance»;
- «New Uzbekistan – The Foundation of the Third Renaissance».



► Digital Frontiers

Advancing with the times

Reflecting modern security demands, an «Information security» group has been established at an academic lyceum in the Jizzakh region. Twelve elite students are currently undergoing specialized training in cybersecurity, advanced informatics, and mathematics. To bridge theory and practice, students participate in weekly training sessions and short-term internships conducted by professional officers from the regional internal affairs information security units.

Under the guidance of group leader Shavkat Jurayev and instructor Javohirkhon Habibullayev, all students have already earned certifications through the «One million uzbek coders» project. The curriculum is further bolstered by strategic partnerships with Sambhram university in Jizzakh and the Jizzakh branch of the National university of Uzbekistan (NUUz). This collaborative educational model aims to produce highly skilled professionals capable of effectively combating digital crimes and ensuring national information security in the future.



► Masters of the Craft

UPHOLDING JUSTICE

Major Eldor Turdiboyev, a seasoned forensic expert serving in the Ohangaron district, is dedicated to solving crimes through meticulous evidence analysis. A 2017 graduate of the Academy of the Ministry of internal affairs, he mastered his craft under the mentorship of Zokir Eshonqulov.



Major Turdiboyev's role involves identifying and «listening to» invisible clues that remain at crime scenes. In the past year alone, he participated in 269 crime scene investigations, contributing significantly to solving multiple burglaries and identifying several unknown deceased individuals. As Turdiboyev notes, for a forensic specialist, even a single strand of hair or a faint dust print can serve as the ultimate key to uncovering the truth and ensuring that justice prevails.

Preserving the sacred bond

In the Oqqorgon district of the Tashkent region, the «Turmush» initiative is being carried out through door-to-door assessments in collaboration with women's committees, community associations, and religious authorities. The mission prioritizes supporting vulnerable households and resolving deep-seated family conflicts at the grassroots level.

Key outcomes of the recent efforts include the successful reconciliation of five estranged families and the enforcement of child support payments from three previously non-compliant fathers. Furthermore, two property disputes were settled through mutual agreement, and protection orders were issued to five women victims of harassment or violence. Despite these successes, 126 cases have progressed to court, primarily regarding divorce and alimony. The initiative remains steadfast in its goal to mitigate family breakdowns before they reach litigation, aiming to shield children from the psychological impact of broken homes.



NAVRO'Z HAQIDA QIZIQARLI MA'LUMOTLAR

Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma», Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit-turk», Abu Bakr an-Narshaxiyning «Buxoro tarixi», Umar Xayyomning «Navro'znoma» kabi asarlarida va boshqa qadimiy manbalarda Navro'z tarixi haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Buyuk shoir Alisher Navoiyning «Har tuning Qadr o'lubon, har kuning o'lsun Navro'z!» satrlari bu bayramning xalq uchun naqadar muhim va qadrlı ekanligidan dalolat beradi.

«Xavfsiz mahalla — xavfsiz hudud»

PASTDARG'OMDAGI O'ZGARISHLAR

Toshkent shahrining Chilonzor tumanida tajriba tariqasida jinoyatchilikning oldini olish, huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash, aholi muammolarini o'z vaqtida hal qilish orqali hududda xavfsiz muhitni yaratish borasida amalga oshirilayotgan ishlar barcha viloyatlarda xizmat qilayotgan xodimlar uchun ham chinakam namuna, ulgi vazifasini o'tamoqda.



Tumanda jami 100 ta mahalla bo'lib, 2025-yilda ularning 11 tasi qizil, 28 tasi yashil, 61 tasi sariq toifada edi. Mahalla yettiliklarining uyma-uy yurishi natijasida oilaviy nizolar va ajrimlar oldi olindi. Yoshlar bandligini ta'minlash ishlari va huquqbuzarliklar profilaktikasi kuchaytirildi. Aholi bilan ochiq mu-

loqot va ishonchli aloqa o'rnatilgach, yil yakuni bo'yicha mahallalarning 5 tasi sariq, 95 tasi yashil toifaga o'tdi.

– Endi oila-turmush doirasidagi va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish, mahallada ruhiy-psixologik sog'lom muhitni shakllantirish, ta'lim muassasalari

bilan manzilli ishlash va boshqa bir qator ishlarimizni qayta tashkil etish bo'yicha har birimiz o'zimizga yangi vazifalar belgilab oldik, – deydi «Qatortarak» MFY profilaktika inspektori, katta leytenant Sirojjon Meliqulov.

Darhaqiqat, tuman IIB mas'ul xodimlari tomonidan umumta'lim maktablarida har hafta payshanba kunlari o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan muloqotlar o'tkazilmoqda. O'zaro muloqotlarda o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, sport to'garaklari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarga jalb etish ishlari kuchaytirilyapti. Probat-siya nazoratidagi shaxslar bandligini ta'minlash, ularni kasb-hunarga jalb etish borasidagi ishlar natijasida sezilarli jonlanish bor. Masalan, probatsiya ro'yxatida turuvchi Akobir Nurmatovga (ism-sharifi o'zgartirilgan) 30 million so'mlik imtiyozli kredit asosida avtomobillarga xizmat ko'rsatish ustaxonasi tashkil etishga ko'maklashildi. Natijada fuqaro o'zini-o'zi band qildi.

Bizning «Qatortarak» mahallasi ham ilgari qizil toifada edi. Xavfsizlikni ta'minlashda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydala-

nishda oqsayotgan ekanmiz. Yaqinda videokuzatuv kameralari o'rnatildi. Patrul-post xizmatlariga yordamchi kuch sifatida aholi orasidan vakillar jalb etildi. Ta'lim muassasalari bilan hamkorlik kuchaytirilib, bekorchi yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish uchun ular maktabdagi sport va kasb-hunar to'garaklariga jalb qilindi. Natijada huquqbuzarliklar kamayib mahallamiz sariq toifadagi mahallaga aylandi, – deydi, «Qatortarak» MFY raisi Otabek Rustamov.

«Xavfsiz mahalla – xavfsiz hudud» tamoyili jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim shartiga aylanmoqda. Shu maqsadda tumanda har bir fuqaroning xavfsizligini ta'minlash, aholi o'rtasida o'zaro hurmat va hamjihatlik muhitini qaror toptirish, har bir mahallani jinoyatdan xoli, tinch va farovon makonga aylantirish borasida tizimli ishlar davom ettirilmoqda. Muammoni joyida o'rganish va o'z vaqtida hal qilish tinch va farovon hayot garovidir.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

Qilni qirq yorib

SINCHKOVLIK – HAQIQAT KALITI

Jinoyatchilar har qancha ustomonlik bilan harakat qilmasin, ortidan iz qoldiradi. Biroq bu izlar oddiy ko'zga ko'rinmaydi – ularni ko'rish, anglash va «gapirtirish» uchun alohida iste'dod, chuqur bilim va sinchkovlik kerak. Qahramonimiz – ana shunday mas'uliyatli soha egasi, tajribali ekspert.

Ohangaron tumani IIB Ekspert-kriminalistika guruhi katta eksperti, mayor Eldor Turdiboyev 2017-yilda IIV Akademiyasini tugatgach, Ohangaron tumani IIBda ekspert lavozimida xizmat faoliyatini boshladi. Soha sirlarini tajribali ustoz – kapitan Zokir Eshonqulovdan o'rgandi. 2019-yildan boshlab egallab turgan lavozimida ishlab kelmoqda.

U faoliyati davomida ko'plab jinoyatlarning «issiq izida» fosh etilishiga erishdi. Birgina o'tgan yili 2 ta o'g'rilik jinoyatini fosh etishga, 2 ta murdaning shaxsini aniqlash-

ga o'z hissasini qo'shdi. Shuningdek, 269 marotaba hodisa joylarida ekspert-mutaxassis sifatida ishtirok etdi. Joriy yilning o'tgan davrida esa 28 marta hodisa joylarida bo'lib, bitta murdaning shaxsiga aniqlik kiritishga muvaffaq bo'ldi. Xullas, mayor Eldor Turdiboyevning hamkasblari bilan hamkorlikdagi sa'y-harakatlari tufayli jinoyatlar tezkorlik bilan fosh qilinib, yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi ta'minlanmoqda.

– Ekspert uchun bir dona soch tolası, devordagi ko'zga zo'rg'a tashlanadigan shilingan joy yoki polda-



gi chang izi – bari haqiqatga olib boruvchi kalit bo'lishi mumkin. Shu bois sohamizda o'ta sinchkovlik va hushorlik talab etiladi, – deydi lavhamiz qahramoni.

Uning so'zlarida jon bor. Ekspertlar mavhumlik ichida haqiqatni izlovchi shaxslardir. Ularning ishi natijasi adolat mezonini tiklaydi. Qahramoni-

miz ta'kidlaganidek, hushyorlik va sinchkovlik har bir izning ortidagi sirni ochishga, demakki, haqiqatni qaror toptirishga zamin yaratadi.

Abror POYONOV,
katta mutaxassis-muxbir,
katta serjant.

Toshkent viloyati.

Сиз кутган учрашув

Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист, театр ва телевидение актёри Абдусамат Жўрабоев Республика Ёш томошабинлар театрида 30 йилдан ортиқ фаолият олиб бориб, сахнада ранг-баранг образлар яратган. Томошабинлар уни айниқса, «Қовоқвой ва Чаноқвой» спектаклидаги Қовоқвой роли орқали яхши танийди. Шунингдек, у турли ҳажвий теледастурларда, телеминиатюралар, «Жиблажибон» телесериалида яратган ўзига хос роллари билан мухлислар қалбидан жой олган. Актёр ўзининг болалиги, орзулари, санъатга кириб келиши, ижодий фаолияти, сахнада яратган образлари ва санъат йўлида орттирган бой тажрибалари ҳақида куйидагиларни гапириб берди.

ҚОВОҚВОЙ БИЛАН ТАНИЛГАН АКТЁР

ОТАМ БЕРГАН САБОҚ

1952 йил 18 ноябрда Тошкент вилояти Чиноз туманининг Тилла-обод қишлоғида туғилганман. Отам Абдуманноп Жўрабоев колхозда мироб бўлган, экинзорларга сувни навбат билан тақсимлаган.

Адашмасам, ўшанда 2-синфда ўқирдим. Дарсда тўполон қилганим учун ўқитувчимиз бир шапалоқ урди. Аламим келиб, уйгача йиғлаб бордим. Отам энди ишдан келиб турган экан. Уни кўриб, қаттиқроқ йиғладим. «Ие, нима бўлди?» – деб сўради отам. «Ўқитувчимиз урди...», – эркаландим мен. «Ҳа-а... Чатоқ бўлибди-ку. Қани, қайси бетинга урди?», деб яқинлашди. «Мана бетимга», – дедим ҳиқиллаб чап юзимни кўрсатиб. Кутилмаганда ўнг юзимга шапалоқ келиб тушса бўладими! «Ҳали сенми ўқитувчидан гап эшиттирадиган, сенми ўқитувчидан шикоят қиладиган! Айб ўзингда бўлгандирки, урган!», – деди отам. Шу воқеа менга катта сабоқ бўлди. Шундан кейин устоздан дакки эшитмаслик учун тўполон қилмайдиган бўлдим, мактабдаги гапни уйга ташимайдиган намунали ўқувчига айландим.

ИЛК ИЖОДИЙ ҚАДАМЛАР

Болалигимдан санъатга қизиқардим. Айниқса, тақлид санъатига иштиёқим баланд эди. Мактабимиздаги драма тўғарагининг энг фаол аъзоларидан бири эдим. Жуссам кичкина бўлгани учун кўпинча комик роллар бериларди.

Мактабдаги ҳеч бир тантанали тадбир менинг иштирокимсиз ўтмасди.

Шунингдек, шеър ва ҳикоя ёзиш, китоб мутолаа қилиш менинг энг сеvimли машғулотларимдан эди. Туман газетасига ҳам вақти-вақти билан шеърим машқларим ва хабарларим чиқиб турарди.

ОРЗУ ВА ТАНЛОВ

Ёшлиқдан орзуим – Ички ишлар органи ходими бўлиш эди, аммо ота-онамга бунга айтишга чўчирдим.

Мактабни битиришим арафасида, отам қайси касб эгаси бўлмоқчилигимни сўради. Орзумни эшитиб онам: «Умрим йўлингга кўз тикиш билан ўтадим, жоним болам», – деб ростмана йиғлаган. Икковлари ҳам қарши бўлишди, рухсат беришмади. «Бўлмаса, санъаткор бўламан», – дедим. «Бизнинг авлоддан санъаткор чиқмаган. Армонимни амалга ошириб, ўқитувчи бўл», – деган отам. Бу орзуйим ҳам барбод бўлмаслиги учун: «Тошкент театр ва рассомлик санъати институтини тамомлаб педагоглик қилса ҳам бўлар экан», – деганимдан сўнг оқ фотиҳа беришган.

Шундан кейин Тошкентга келиб, мазкур институтнинг драма ва кино актёрлиги факультетига ўқишга қабул қилинганман.

КАТТА ОРЗУЛАР, КИЧИК РОЛЛАР

Битирувга яқин Ёш томошабинлар театрининг директори Гуландом Ғуломова ҳамда бош режиссёри Мирзакарим Бобоев институтга келиб, иқтидорли ёшларни ишга таклиф қилишди. Шу тариқа синовлардан ўтиб, ўнга яқин курсдошларим билан йўлланма асосида Республика Ёш томошабинлар театрига ишга борганмиз.

Очиғи, катта-катта роллар ижро этишни орзу қилардим, аммо бу театрда асосан чумоли, суварак, бўри, қуён каби роллар ўйналаркан. Ҳатто шулар ҳам актёрлар орасида талаш экан. Бошида бу менга бироз эриш туюлган. Кейин билсам, айнан шу ролларни ўйнаш қийин экан. Чунки биргина қойилмақом қилиб ижро этган ролингиз орқали болалар учун сахнада қахрамонга айланишингиз мумкин экан.

Хуллас, аввалига уч йил оммавий сахналар-

Кўриб турганингиздек, отамнинг орзулари ҳам амалга ошди.

ТЎҒРИ ТАНИЛГАН ЙЎЛ

Баъзан мenden: «Ҳеч сизда ҳам катта театрларда катталар учун роллар ўйнаш орзуси бўлганми?», – деб сўрашади. Яширмайман, театрга энди ишга келган пайтларим, албатта, буни орзу қилганман. Ҳатто Гамлетни ҳам ўйнагим келарди. Кейин ўйласам, мен тўғри йўлни танлаган эканман. Директор билан режиссёр мени шу театр учун танлаб тўғри



да ишлашга тўғри келди. Илк ролим «Қизил қалпоқча»даги типриккан. Бир оғиз сўзи бор, холос. Ҳатто шунинг учун ҳам уч ой репетиция қилганман. Кейинчалик турли образларни талқин қилдим.

ИККИ МИНГ МАРТА ЎЙНАЛГАН РОЛЬ

Мени болажонларга танитган Қовоқвой образи бўлади. Аслида «Қовоқвой ва Чаноқвой» спектакли 1962 йили театрда қўйилган, Ўзбекистон халқ артисти, устозимиз Воҳид Қодиров Қовоқвой ролини ижро этган экан. Бир куни устоз чақириб: «Абдусамат, шу спектаклни қайта сахналаштирмоқчиман, Қовоқвой ролини сен ўйнасанг», – деди. Салкам 20 йилга яқин сахнадан тушмаган бу ролни 2 минг мартадан ошиқ ижро этганман. Агар ҳозир ҳам шу спектакл сахналаштирилиб, менга Қовоқвой образи берилса, бемалол ўйнай оламан, бирор сўзини унутган эмасман.

Спектаклда Қовоқвойнинг конфет ейдиган жойи бор. Реквизитор конфет қоғозига бир нимани ўраб, ширинликка ўхшатиб берарди. Манзура опа: «Йўқ, бу бўлмайди. Мен ўзим уйимдан сенга зўр конфетлар олиб келаман», – дерди. Қовоқвой конфетни емай отиб юборарди. Манзура опа: «Сен конфетни отмагин, чўнтагинга солиб қўйсанг, спектаклдан кейин маза қилиб ейсан», – дерди кулиб.

Театрдаги фаолиятим давомидида кўплаб ранг-баранг образларни ўйнаш насиб этган. Бу орада Республика эстрада-цирк коллежида ҳам салкам 15 йил педагог бўлиб ишладим.

қилган экан. Балким, бошқа театрда бунчалик обрў ололмаслигим, томошабин қалбини забт этолмаслигим мумкин эди.

ДУОҒЎЙИМ – ОНАМ БОР

Машхур ҳофизнинг: «Онаси бор одамлар ҳеч қачон қаримайди», деган хонишини маза қилиб тинглайман. Юз билан юзлашган онам бор. Чинозда яшайдилар, кўргани борганимда, тиззаларига бошимни қўйиб эркаланаман. Улар ҳам сочларимни майин тараб ўтирадилар. Кўпдан кўп дуо қиладилар.

Рафиқам Муборак анча йиллар театримизда либослар цехида ишлади, 2012 йил «Шухрат» медали билан тақдирланган. Бахтли турмушимиздан уч нафар фарзандимиз бор. Бугунги кунда шириндан-шаркар набираларнинг бува-бувисимиз. Фарзандларим санъат йўлини танламади, балки келажакда набираларим орасидан бирортаси шу соҳага қизиқиб қолар...

ТИЛАКЛАРИМ...

Баҳор кириб келиши билан байрамлар бир-бирига улашиб кетади. Айниқса, бу йил байрамлар кўп бўлиб, халқимизга янада кўтаринки кайфият бахш этмоқда. Фурсатдан фойдаланиб, барчангизга мустаҳкам соғлиқ, оилаларингизга тинчлик-хотиржамлик, хонадонларингизга қут-барака ва фаровонлик тилайман. Байрамлар барчамизга қувонч олиб келсин!

Ўз мухбиримиз
Адолат ФАЙЗИЕВА ёзиб олди.



Zamonaviy texnologiyalar rivojlanib, axborot maydoni yanada kengayib borayotgan hozirgi davr odamlarga ma'lumot yetkazishning an'anaviy usullari ham yangilanishini talab qiladi. Ana shunday zamonaviy yondashuvni Namangan viloyati Ichki ishlar boshqarmasi axborot xizmati kichik mutaxassisi, safdor Ismoil Tursunov o'z faoliyatida namoyon etmoqda.

DAVR BILAN HAMNAFAS



I. Tursunov tayyorlagan roliklar orasida «Do'st emas, u tuzoq», «Telegramdagi zararli APK fayllardan ehtiyot bo'ling!», «Qoidaga amal qil! Men seni himoya qilish uchun chizilganman», «To'g'ri tanlov hayotni saqlab qoladi», «Shoshqaloq piyodalarga avtomashinalarning murojaati» kabi syujetlar alohida e'tiborga loyiq. Ularda nafaqat ma'lumot beriladi, balki muayan ijtimoiy muammolarga ishora qilinadi, odamlarda ehtiyotkorlik va mas'uliyat tuyg'usi uyg'otiladi.

Bugun axborot oqimi misilsiz darajada tez va ko'p qirrali. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, turli platformalar orqali har kuni minglab ma'lumotlar tarqaladi. Shu sharoitda odamlarning diqqatini jalb qilish oson emas. Ayniqsa, yoshlar qisqa, tushunarli va ta'sirli kontentni talab qiladi. Ismoilning animatsion podkastlari va roliklari aynan shu talabga javob beradi.

Lavhamiz qahramoni tayyorlayotgan animatsion roliklar esa axborot xizmatining yangi qirrasini namoyon etmoqda. Bu kabi ijodiy yondashuvlar sohaning zamonaviy taraqqiyot yo'lida muhim qadam bo'lib xizmat qilayotganini alohida ta'kidlash joiz.

Bugun ko'chalarda, bozor va do'konlar, hatto maktablar atrofida bolalarni rang-barang chiroqlar va yumshoq o'yinchoqlar orqali jalb qiluvchi avtomatlar ko'zga tashlanadi. Xalq orasida «Prize crane machine» yoki qisqichli o'yin deb ataluvchi bu qurilmalar bir qarashda oddiy o'yinchoqdek tuyuladi.

Biroq ularning mohiyati butunlay boshqacha. Unda bolani yutuq ilinjida yana va yana pul tikishga undaydigan qimor mexanizmi yashirin. Har bir urinish yangi umid, har bir mag'lubiyat yana bir bor omadni sinab ko'rish istagini uyg'otadi. Shu tarzda, bola sekin-asta o'yinga o'rganib, pulga, aniqrog'i, qimorga bog'lanib qoladi.

Ota-ona maktabda tushlik qilish uchun bergan pul avtomatga ketsa, bu odatga aylanadi. Pul tugaganda esa savol tug'iladi: «Yana qayerdan olaman?» Afsuski, bu holatlar ba'zan yoshlarni no-qonuniy yo'llarga – o'g'irlik, yolg'on va boshqa huquqbuzarliklarga yetaklashi mumkin. Ko'p jinoyatchilik holatlari aynan shunday kichik, beparvo qaralgan illatlardan boshlanadi.

Yoshlar qalbi pok, orzulari musaffo bo'lishi kerak. Ularning ongi va vaqti bilim, sport, ijod va ezgu ishlarga yo'naltirilishi lozim. Qimorga asoslangan o'yinlar esa yoshlarning ruhiyatini zaharlaydi, mehnatsiz yutuqqa o'rgatadi, sabr va mas'uliyat tuyg'usini susaytiradi.

Bu jarayon ortidagi xavf ko'pincha ko'zga tashlanmaydi, faqat uning oqibati seziladi. Bolalar uchun avtomatlar orqali rivojlanayotgan qimor psixologiyasi – faqat «o'yin» emas, hayotdagi intizom, mehnat va sabrga bo'lgan qarashni zaharlaydi.

Bugungi zamonaviy ijtimoiy

MAHALLANING TINCHLIK FORMULASI

Xalqimizda «Bir bolaga yetti mahalla ota-ona» degan teran naql bor. Bugungi shiddatli va turfa ziddiyatlarga to'la zamonda bu ibora yangicha, yanada mas'uliyatli mazmun kasb etmoqda. Yangiqo'rg'on tumanidagi «Qo'riq» mahalla fuqarolar yig'ini-da kechayotgan osoyishta hayot va jinoyatchilikning barvaqt oldini olish borasidagi sa'y-harakatlar mazkur hikmatning amaliy ifodasidir.

2024-yildan buyon «Qo'riq» mahalla fuqarolar yig'inida faoliyat yuritayotgan kapitan Anvarjon Mamatov qisqa fursat ichida nafaqat tartib posboni, balki mahallaning dardini eshita oladigan, odamlar ishonchini qozongan dildoshiga aylandi.

Mahallada yashovchi o'smir N.Botirov (ismi o'zgartirildi) ning qismati bunga yaqqol misol. Nafs amriga bo'ysunib, o'g'irlik ko'chasiga kirgani uning hayotida qora dog' bo'lardi. O'sha damda yigitning ko'zlarida faqat qo'rquv va el-urt oldidagi sharmandalik vahimasi bor edi. Biroq A. Mamatov bu vaziyatga faqat qilmish va uning oqibati nuqtayi nazaridan yondashmadi. U insonni jazolashdan ko'ra, qayta tarbiyalash va jamiyatga qaytarish muhimroq ekanini angladi. «Bir marta xato qilding, lekin bu butun umringa tamg'a bo'lmasligi kerak. Sen hali yoshsan, oilangga va yurtingga keraksan», degan samimiy da'vatlar adashgan qalbdagi umid uchqunlarini uyg'otdi. Haftalab olib borilgan maqsadli profilaktik suhbatlar bugun o'z mevasini berdi: N.Botirov nafaqat tuzalish



yo'lga o'tdi, balki halol mehnat orqali o'z aybini yuvishga intilmoqda.

Kapitan A. Mamatov har haftaning payshanba kuni hududdagi 11-sonli maktabda o'tadigan uchrashuvlar tarbiyaviy ahamiyatga ega muloqot maydoniga aylangan. Yoshlar bilan yuzma-yuz muloqot davomida hamda dars qoldirishni odat qilgan o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan «fuqarobay» ishlash orqali tarbiyaning ham psixologik, ham huquqiy jihatlariga

chuqurroq yondashiladi.

U xizmat qilayotgan hududning qisqa vaqt ichida «yashil toifa»ga kiritilishi ham bejiz emas. Aslida mahallaning tinchlik formulasi juda oddiy: fidoyi xizmat, odamlar bilan samimiy muloqot va qonunga sadoqat. Kapitan Anvarjon Mamatov o'z faoliyati orqali aynan shu tamoyillarni hayotga tatbiq etmoqda. Natijada «Qo'riq» mahallasida osoyishtalik mustahkamlanib, odamlar qalbida ertangi kunga bo'lgan ishonch yanada ortib bormoqda.

Ogohlik — kun talabi

BOLALAR ONGINI ZAHARLAMAYLIK

Bugun ko'chalarda, bozor va do'konlar, hatto maktablar atrofida bolalarni rang-barang chiroqlar va yumshoq o'yinchoqlar orqali jalb qiluvchi avtomatlar ko'zga tashlanadi. Xalq orasida «Prize crane machine» yoki qisqichli o'yin deb ataluvchi bu qurilmalar bir qarashda oddiy o'yinchoqdek tuyuladi.

Biroq ularning mohiyati butunlay boshqacha. Unda bolani yutuq ilinjida yana va yana pul tikishga undaydigan qimor mexanizmi yashirin. Har bir urinish yangi umid, har bir mag'lubiyat yana bir bor omadni sinab ko'rish istagini uyg'otadi. Shu tarzda, bola sekin-asta o'yinga o'rganib, pulga, aniqrog'i, qimorga bog'lanib qoladi.

Ota-ona maktabda tushlik qilish uchun bergan pul avtomatga ketsa, bu odatga aylanadi. Pul tugaganda esa savol tug'iladi: «Yana qayerdan olaman?» Afsuski, bu holatlar ba'zan yoshlarni no-qonuniy yo'llarga – o'g'irlik, yolg'on va boshqa huquqbuzarliklarga yetaklashi mumkin. Ko'p jinoyatchilik holatlari aynan shunday kichik, beparvo qaralgan illatlardan boshlanadi.

Yoshlar qalbi pok, orzulari musaffo bo'lishi kerak. Ularning ongi va vaqti bilim, sport, ijod va ezgu ishlarga yo'naltirilishi lozim. Qimorga asoslangan o'yinlar esa yoshlarning ruhiyatini zaharlaydi, mehnatsiz yutuqqa o'rgatadi, sabr va mas'uliyat tuyg'usini susaytiradi.

Bu jarayon ortidagi xavf ko'pincha ko'zga tashlanmaydi, faqat uning oqibati seziladi. Bolalar uchun avtomatlar orqali rivojlanayotgan qimor psixologiyasi – faqat «o'yin» emas, hayotdagi intizom, mehnat va sabrga bo'lgan qarashni zaharlaydi.

Bugungi zamonaviy ijtimoiy

tarmoqlar yoshlar qalbiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. «Tez boyish va oson hayot» xayoli yoshlar ongiga singib bormoqda. Rasman taqiqlangan qimor virtual o'yinlar va avtomatlar orqali yashaydi. Bolalar bu targ'ibotni aniq his qilmaydi, lekin u yoshlar psixikasiga shunday chuqur kirib boradiki, oddiy o'yinchoq katta qaramlikka olib kelishi mumkin.

Chortoq tumanida maxsus ishchi guruh tuzilib, mazkur qurilmalarni belgilangan tartibda bartaraf etish choralari ko'rilmog'da. Dastlab tadbirkorlarga ogohlantirishlar berilib, qonun talablari inobatga olinmasa, tegishli choralar ko'rilishi tushuntirilmoqda. Bu esa jamoatchilikda shunday tushunchani uyg'otishi kerakki, mas'uliyat faqat davlat va nazorat idoralariga tegishli emas. Ota-onalar ham e'tiborli bo'lishi

kerak, farzandi qayerda yurgani, nima bilan mashg'ul ekani, pulini qayerga sarflayotganini diqqat bilan kuzatishi lozim. «Tadbirkorlik» niqobi ostida yoshlar taqdiriga befarq qarash – kela-jakka xiyonatdir.

Tanganing yaltiroq tomoni ko'zni quvontirishi mumkin, ammo uning orqasida vayron bo'lgan taqdirlar yashirin. Bir o'yinchoq deb boshlangan yo'l qayg'uli taqdirda olib bormasin. Har bir ota-ona o'z farzandining ma'naviy immunitetini himoya qilishi, ruhiy va intellektual rivojlanishiga mas'uliyat bilan yondashishi shart.

Zero, ertaga bir o'yinchoq uchun tikilgan pul emas, balki bir yoshning taqdiri yutqazilishi mumkin. Ogohlik – davr talabi va bu masalada hamjihatlikda harakat qilinishi lozim.

Sahifani viloyat bo'yicha muxbirimiz Jahongir TO'XTASINOV tayyorladi.



■ Xorazm viloyati

Kumush Ernazarova ayni paytda IIV Akademiyasining masofaviy ta'lim shaklida 1-bosqich talabasi ham.

– Xotin-qizlar bilan ishlash juda nozik va mas'uliyatli jarayon, – deydi K. Ernazarova. – Ko'p hollarda muammo faqat huquqiy choralar bilan emas, balki insoniy yondashuv, sabr va tushunish bilan hal etiladi.

«Chaqir» mahallasida yashovchi Saodat (ismi o'zgartirildi) uzoq vaqt davomida turmush o'rtog'ining tazyiqlariga duch kelayotgan edi. O'rganishlarda turmush o'rtog'ining ichkilikbozlikka ruju qo'ygani ham ma'lum bo'ldi. Jabrlanuvchi ayolga himoya orderi rasmiylashtirildi. Profilaktika inspektori tomonidan turmush o'rtog'i doimiy nazoratga olindi. Shu bilan birga, jabrlanuvchi ayol ruhiy tushkunlikdan chiqishi uchun «Men kuchli ayolman» loyihasiga jalb etildi. Psixologlar ishtirokida o'tkazilgan suhbat va treninglar natijasida uning ruhiy holatida ijobiy o'zgarishlar kuzatila boshladi.

AYOL BAXTI – JAMIYAT BAXTI

Bugungi kunda xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish, ularning huquqlarini ta'minlash borasida ichki ishlar organlarida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlarning xizmati alohida ahamiyat kasb etmoqda. Yangiariq tumani IIB JXX HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, katta leytenant Kumush Ernazarova ana shunday fidoyi xodimlardan biridir.



– Ayolning o'ziga bo'lgan ishonchini qaytarish juda muhim, – deydi qahramonimiz. – Biz Saodat bilan ko'p suhbatlashdik. U asta-sekin o'zini tiklab, oilasiga, farzandlariga bo'lgan e'tiborini yana kuchaytira boshladi.

Ko'rilgan chora-tadbirlar samarasi o'laroq, ushbu oilada yarashuvga erishilib, muhit sog'lomlashdi.

Hozirgi kunda katta leytenant Kumush Ernazarova kabi fidoyi xodimlarning sa'y-harakatlari tufayli ko'plab ayollar o'z hayotida yangi sahifa ochmoqda. Zero, har bir ayolning baxtli va xavfsiz hayot kechirishi oilaning, jamiyatning baxtli hayotidan dalolatdir.

Nilufar JABBOROVA,
o'z muxbirimiz.

Sohaviy xizmatlarda

JISMONIY ZARBADAN KUCHLI

Ba'zan xodim psixolog bilan suhbat muhimligini tan olmaydi. U o'zida ruhiy o'zgarishlar yuz berayotganiga e'tibor qaratmaydi. Xizmat jarayonidagi katta yuklama, oila tashvishlari qo'shilib asab tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini anglab yetganida esa allaqachon ruhiy charchoqlik davri boshlangan bo'ladi. Ana shunday paytda mutaxassis unga ko'makka keladi.

Sirdaryo tumani IIBda o'tkazilgan seminar-treningda ayrim xodimlarning psixologik test natijalari salbiy chiqdi. Bu ularning ish samaradorligini ham ortga tortayotganiga dalil edi. Shundan keyin tuman IIB mutasaddilari bilan birgalikda ushbu xodimlarning ruhiy barqarorligini tiklash bo'yicha reja tuzib chiqildi.

Dastavval ularning ish yuklamasi, ish vaqti, bo'sh vaqti to'liq tahlil qilindi. Shunda mahallalarda kriminogen vaziyatni yaxshilash uchun sa'y-harakatlarga ko'p vaqt ajratayotganlari ayon bo'ldi. Har biri nizoli oilalar, xavf guruhiga kiruvchi shaxslar bilan shug'ullanyotganida salbiy axborotga, janjalli vaziyatlarda esa ruhiy qo'zg'alishlarga duch kelgan. Bu holat bora-bora surunkali tus olgan.

Psixolog har bir xodim bilan nostandart, o'ta krizisli vaziyatlarda o'z ruhiy barqarorligini saqlash bo'yicha trening o'tkazdi. Ularga xizmatdan bo'sh vaqtda oilaviy bayramlarni nishonlash, dam olish joylarida hordiq chiqarish, kitob o'qish, film, konsert tomosha qilish tavsiya etildi. Shuningdek, har biriga individual yondashilib, postravmatik stress holatlarini bartaraf etish, o'ta og'ir vaziyatlarda o'zini tutishlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.



Bir oy davomida o'tkazilgan ana shunday tadbirlar natijasida ruhiy zo'rliqqan xodimlarning holati yaxshilandi.

Xizmatga qabul qilinayotgan nomzodlarga psixologik tashxis qo'yish ham Sirdaryo viloyati IIB MMI va KTX psixologining vazifalari doirasiga kiradi. Chunki bu soha xodimdan kuchli iroda, sabr-toqat, matonat va murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini talab qiladi. Test jarayonlari nomzod bunga qay darajada tayyorligini baholab beradi.

O'tgan yili xizmatga, IIV Akademiyasi, Akademik litseyiga kirish uchun hujjat topshirgan yuzlab yoshlar ana shunday test jarayonlaridan o'tkazildi. Ularning orasidan eng saralarigagina ijobiy xulosa berildi. Afsuski, jismonan, salomatligi va bilimi jihatidan barcha talablarga javob beradigan ayrim yoshlar psixologik testlardan o'ta olishmadi.

Faoliyatimiz davomida ichki ishlar organlari jamoalarida sog'lom psixologik muhitni ta'minlashga ham alohida e'tibor qaratamiz.

Xodimlar o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizo va kelishmovchiliklar tahlil qilinib, ularni hal etish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi. Bu esa xodimlar o'rtasida o'zaro hurmat va hamjihatlik muhitini shakllantirishda muhim omil bo'ladi.

Ayrim holatlarda xodimlar fojiali hodisalar yoki inson hayoti bilan bog'liq og'ir jinoyatlar joyida xizmat qilishga to'g'ri keladi. Bu ularning ruhiyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Oqoltin tumanida yo'l-transport hodisasi tufayli uch nafar shaxs hayotdan ko'z yumdi. Voqea joyiga yetib borgan tergov-tezkor guruhi tarkibidagilarning biri anchagacha ruhiy stressdan chiqqa olmadi. Psixolog o'sha xodimlarning ruhiy reabilitatsiyasiga ko'maklashgach, u sekin-asta o'ziga kela boshladi. Xodimga bundan keyin mana shunday holatlarda o'zini qanday tutishi kerakligi bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatildi.

Bir so'z bilan aytganda, olib borayotgan chora tadbirlarimiz, xodimlarning ruhiy salomatligini saqlash, xizmat samaradorligini oshirish va jamoada sog'lom muhit yaratishda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Amalga oshirilgan profilaktik va tahliliy ishlar nafaqat xodimlarning kasbiy faoliyatiga, balki jamiyat xavfsizligini ta'minlashga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda desak, yanglishmagan bo'lamiz.

Shavqiddin SHERMATOV,
Sirdaryo viloyati IIB MMI va
KBTX psixologi,
kapitan.

Xizmatlarda

QOIDAGA AMAL QILGAN PAND YEMAYDI

Qarshi shahar IIOFMB Migratsiya va personallashtirish bo'limi xodimlari tomonidan viloyat markazida pasport-viza tartibini kuchaytirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar, tegishli davlat idoralari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda o'tkazilayotgan «Pasport-viza», «Spitamen» tadbirlari mavjud talab va qoidalarga rioya etilishini ta'minlashda muhim o'rin tutmoqda.

O'tgan yili o'tkazilgan «Spitamen» tezkor-profilaktik tadbirida 108 nafar fuqaro pasport tizimi qoidalarini buzgani aniqlangan bo'lsa, joriy yilning dastlabki ikki oyi davomida 16 nafar kishiga nisbatan ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirildi. Shundan 8 nafari chet el fuqarosi bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasida bo'lish qoidalarini buzgan. Xuddi shuningdek, 8 nafar hamyurtimiz xorijiy fuqarolarga o'z uylarida noqonuniy yashashi uchun sharoit yaratib bergan.

Jumladan, joriy yilning fevral oyida o'tkazilgan tadbir doirasidagi tekshiruvlarda Turkiya fuqarosi I.X. hamyurtimiz Y.M.ga tegishli xonadonda vaqtincha ro'yxatdan o'tmasdan yashab kelayotgani aniqlandi. Ushbu chet el fuqarosi va uni qabul qilish tartibini buzgan uy egasiga nisbatan tegishli tartibda chora ko'rildi. Turkiyalik mehmon sodir etgan huquqbuzarligi uchun JIB Qarshi shahar sudining qaroriga asosan mamlakatimizdan chiqarib yuborildi.

Joriy yilning ikki oyi mobaynida shahrimizga doimiy yashash uchun kelgan va doimiy yashovchi chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan 14 nafar shaxsga yashash guvohnomalari rasmiylashtirib berildi. Xorijiy davlatlardan kelgan 405 nafar fuqaro vaqtinchalik ro'y-xatga olindi.

Bo'limimizga murojaat qilgan 5772 nafar fuqaro nomiga elektron talabnomalar shakllantirilib, ma'lumotlar Davlat personallashtirish markaziga yuborildi. Ularga belgilangan muddatlarda ID-kartalar berildi. Shu bilan birga, 1321 nafar yurtdoshimiz xorijga chiqish biometrik pasporti bilan ta'minlandi.

Choriyor MAHMUDOV,
Qarshi shahar IIOFMB Migratsiya va personallashtirish bo'limi boshlig'i, podpolkovnik.

Qashqadaryo viloyati.



Kibermakondagi xatarlar

ZARARKUNANDA DASTURLAR

Internet olami paydo bo'libdiki, kibermakonda zararli dasturlar tarqalib turadi. Ushbu dasturlar ko'pincha xakerlar tomonidan kompyuter tizimlariga noqonuniy kirish, zarar yetkazish, shu tariqa noqonuniy daromad o'rtirish maqsadida ishlab chiqiladi. Quyida ularning ayrimlari haqida to'xtalamiz.

WannaCry

Mazkur virus 2017-yilda kompyuterlarga kirib, ulardagi ma'lumotlarni



shifrlab tashlagan. Fayllarni blokdan chiqarish uchun esa xakerlar pul talab qilgan. Virus dastlab Ispaniyada paydo bo'ldi. Undan Rossiya, Ukraina va Hindiston ko'proq zarar ko'rdi. Hatto bir qator banklar, davlat tashkilotlari va aeroportlarning faoliyati to'xtab qoldi. Buyuk Britaniyadagi ba'zi kasalxonalarda shoshilinch operatsiyalarni o'tkaza olisholmadi.

Virusning tarqalishini tadqiqotchi Markus Xatchins to'xtatishga muvaffaq bo'ldi. U quyidagi jihatga e'tibor qaratdi: dastur fayllarni shifrlashdan avval aslida mavjud bo'lmagan domenga so'rov yuborardi. Xatchins ana shu domenni ro'yxatga oldi. Shundan so'ng WannaCry zarar yetkazishdan to'xtadi. Hisob-kitoblarga qaraganda, virus 150 ta mam-

lakatdagi 500 mingta kompyuterga yuqib ulgurgan. Oqibatda bir milliard AQSh dollari miqdorida moddiy zarar yetkazgan.

Petya/NotPetya/ExPetr

Ushbu virus yordamida kiberxuruj 2017-yilda sodir etilgan edi. O'shanda butun dunyo bo'ylab ko'plab yirik kompaniyalarning korporativ tarmoqlari ziyon ko'rdi. Virus diskdagi barcha fayllar haqidagi



ma'lumotlar bazasini shifrlab qo'ydi. Keyin ushbu zararkunanda dastur yaratuvchilari bitkoinida badal talab qildi. Ammo to'lov evaziga jo'natilgan kodlar qattiq diskdagi ma'lumotlarni blokdan chiqarish o'rniga butunlay yo'qotib yubordi. Virus kompaniyalarning barcha infratuzilmalarini o'z nazorati ostiga oldi. «WannaCry»dan

himoyalovchi dasturni qo'llash ham foyda bermadi.

Virus Yevropa, AQSh, Avstraliya, Hindiston va Xitoydagi ko'plab kompaniyalar va davlat tashkilotlarining kompyuterlariga o'tdi. Ayniqsa, Ukrainada keng tarqaldi. Ushbu mamlakatdagi 300 dan ziyod kompaniya jabr ko'rdi. Xakerlarning qilmishi tufayli yetkazilgan zarar 10 milliard AQSh dollaridan oshdi.

«Facebook»ka hujum

2020-yilda xakerlar «Facebook» ijtimoiy tarmog'iga hujum uyushtirishdi. Buyuk Britaniyaning «Compartech» kompaniyasi xabar qilishicha, ushbu xuruj natijasida mazkur ijtimoiy tarmoqning 267 million foydalanuvchisining shaxsiy ma'lumotlari o'g'irlangan. Ushbu ma'lumotlarning asosiy qismi amerikaliklarga tegishli edi.

Shundan keyin AQSh Federal savdo komissiyasi «Facebook»ka mijozlariga tegishli ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlay olmagani uchun 5 milliard AQSh dollari miqdorida jarima soldi. Bu ilgari qo'llanilgan eng ko'p miqdordagi sanksiyadan



20 barobar ortiq edi. Qolaversa, kompaniyaning nufuziga ham sezilarli darajada putur yetdi.

Psixik kiberxuruj

2020-yilning sentabrida kiberjinoyatchilar Finlyandiyaning eng yirik psixoterapiya markazlaridan



biri bo'lgan «Vastaamo»ning ma'lumotlar bazasiga kirishga muvaffaq bo'lishdi. Ular o'n minglab foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini, shu jumladan shifokor-terapevtlarning qaydlarini o'g'irlashdi.

Ma'lumotlarni qaytarish evaziga xakerlar har bir foydalanuvchidan 200–540 yevro, Markazdan esa 450 ming yevro talab qilishdi. Ushbu favqulodda voqeadan so'ng Finlyandiya hukumati shoshilinch yig'ilish o'tkazdi. Unda mamlakatning Mudofaa vaziri ham ishtirok etdi. Ammo jinoyatchilarni qo'lga olishning va ma'lumotlarni qaytarishning imkoni bo'lmadi. Yuqoridagi holatlar ijtimoiy tarmoqlardan foydalanganda ehtiyot bo'lish, kiberxavfsizlik qoidalariga rioya etish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bobomurod TOSHEV tayyorladi.

Yo'l boshida

YOSHLAR KO'NGLIGA YO'L TOPIB

Buxoro davlat universitetida tahsil olgan va 12 yil davomida maktabda amaliyotchi psixolog vazifasida faoliyat ko'rsatgan Zamiraga 2021-yili omad kulib boqdi. Ya'ni, Prezidentimizning tegishli qaroriga asosan, umumta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan psixologlardan inspektor- psixologlar tarkibi shakllantirildi. U ham imtihonlar asosida ichki ishlar organlariga qabul qilindi.

– Maktabimizda ichki ishlar organi xodimlari tomonidan yoshlar o'rtasida giyohvandlikka qarshi kurash va jinoyatchilikning oldini olish mavzularida targ'ibot tadbirlari o'tkaziladi. O'quvchilar qatori, menda ham ularning o'ziga yarashgan xizmat kiyimi, ayniqsa, yagona ayol xodima bo'lgan Nasiba Fatullayevaning shijoatkorligi sohaga qiziqishimni oshirardi, – deydi Romitan tumani IIB JXX HPB VY va YBIG voyaga yetmaganlar masalasi bo'yicha inspektor-psixologi, katta leytenant Zamira Hakimova.

Zamira Hakimovaga biriktirilgan «Romitan», «Qahramon», «Qalaychorbog'», «Mug'oncha», «Sho'robod» mahallalarida to'rt ming nafarga yaqin voyaga yetmagan maktab o'quvchilari istiqomat qiladi. Hudud-da 6 ta maktab mavjud. O'tgan ikki oy davomida o'tkazilgan «Davomat» tadbirida darslarga surunkali ravishda qatnamay qo'ygan 124 nafar o'quvchining o'qishni davom ettirishi uchun katta leytenant Z. Hakimova tinim bilmadi. Goh ota-onasi bilan,



goho o'zlari bilan suhbatlashib, ularning bunday yurishi qanday salbiy oqibatlarga olib kelishini tushuntirdi. Ayni paytda bu yoshlar darslarni qoldirishmayapti, bo'sh paytlarida maktablarda tashkil etilgan fan va sport to'garaklariga qatnashyapti,

shuningdek, kasb-hunar o'rganishlari uchun mahallalardagi ustalarga shogird etib biriktirilgan.

Bundan tashqari, yashash hududidan uzoq muddatga chiqib ketgan voyaga yetmaganlardan 8 nafarini o'z yashash hududlariga qaytarib, o'quv mashg'ulotlariga jalb qildi. «Xavfsiz va sog'lom yurt», «Davomat»,

IIB VYIHYK markaziga joylashtirdi. Eng asosiysi, targ'ibot va tashviqot ishlarini samarali olib borganligi natijasida uning xizmat hududida voyaga yetmaganlar tomonidan umuman jinoyat sodir etilmadi.

– Zamiraxon o'ta talabchan, tartib-intizomni xush ko'radigan va yoshlar ko'ngliga tez yo'l topa oladigan xodima. Shu bois mahalladoshlarimiz, ayniqsa, yoshlarning ota-onasi va yaqin qarindoshlari uni hurmat qilishadi, – deydi «Mug'oncha» MFY raisi Hilola Islomova.

Kasbiga chinakam mehr qo'ygan kishi doimo yangilik sari intiladi. Z. Hakimova zimmasidagi vazifalarni vaqtida bajarganligi bois kam bo'lmadi. Hammaning e'tiborida, hamkasblari o'rtasida esa e'tirofda. Shuningdek, bo'sh paytlarini ham unumli o'tkazadi. U badiiy asarlar o'qish bilan birga, sport bilan shug'ullanishni ham kanda qilmaydi.

Katta leytenant Zamira Hakimova oilada suyuqli yor, mehribon ona. Turmush o'rtog'i Sherzodjon tadbirkor bo'lsa-da, ishida doimo unga suyanch bo'lib kelmoqda. Ikki o'g'il va bir qizni voyaga yetkazishda ham bir-birini qo'llashadi. Eng muhimi, yurt osoyishtaligini ta'minlashga ozmi-ko'pmi hissa qo'shayotganidan lavhamiz qahramoni juda baxtiyor.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

Probatsiya xizmati

MAQSADIMIZ – TARBIYALASH VA JAMIYATGA QAYTARISH

Nazoratdagi shaxslarni jamiyatga qayta moslashtirish va mehnatga jalb etish orqali ular o'rtasida takroriy jinoyatchilikning oldini olish probatsiya xizmatining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bu borada nazoratdagi shaxslar bilan izchil ravishda manzilli profilaktik ishlarni amalga oshiryapmiz.

Ayni vaqtda G'uzor tumani IIB probatsiya xizmati hisobida muqaddam jinoyat sodir etgani uchun jami 378 nafar shaxs jazo o'tamoqda. Ularning aksariyati ozodlikni cheklash jazosiga mahkum qilingan va axloq tuzatish ishlariga jalb etilgan shaxslardir. Yana ma'lum bir qismi muayyan huquqdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan mahkumlar.

Ushbu toifadagi shaxslar bilan ishlashda asosiy e'tibor ularning xulq-atvorini o'zgartirishga, belgilangan cheklov va talablarga amal qilishini ta'minlashga hamda foydali mehnatga jalb etishga qaratilgan.

Amalga oshirilgan samarali ishlar natijasida qilmishidan chin dildan pushaymon bo'lib, tuzalish yo'lini tanlagan 26 nafar mahkum sud qarorlari asosida muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilindi. Shu bilan birga, belgilangan cheklov va taqiqlarga rioya qilmagan, sud tomonidan yuklatilgan majburiyatlarga beparvo munosabatda bo'lgan 1 nafar shaxsga nisbatan jazo choralari qat'iyalashtirilib, og'irrog'iga almashtirildi.

Mahkumlarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash, ularni halol mehnatga jalb etish maqsadi-



da joriy yilning o'tgan davrida 4 marta mehnat yarmarkalari o'tkazildi. Natijada 21 nafar shaxs doimiy ishli bo'ldi. Bundan tashqari, 19 nafar mahkum monomarkazlarda kasb-hunarga o'qitilib, ularga tegishli sertifikatlar topshirildi. Shu orqali ularning jamiyatda o'z o'rnini topishi, qonuniy mehnat bilan shug'ullanishi hamda takroran jinoyat

sodir etishining oldini olishga erishilmoqda.

Kelgusida nazoratdagi shaxslar bilan manzilli ishlarni kuchaytirish, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va to'g'ri yo'lga qaytarish borasidagi chora-tadbirlar izchil davom ettiriladi.

Ruslan BO'RIYEV,
kapitan.

Qashqadaryo viloyati.

Qashqadaryo viloyati IIB rahbariyati, shaxsiy tarkibi va faxriylar kengashi iste'fodagi polkovnik

Narzulla JUMANOVning

vafot etganligi munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga ta'ziya izhor etadi.



Maxsus profilaktik tadbir

«TURMUSH» SAMARA BERMOQDA

Oilaviy munosabatlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizo va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish osoyishtalikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shu maqsadda joriy yilning 18-fevraldan 18-mart kuniga qadar respublika bo'ylab «Turmush» maxsus profilaktik tadbiri o'tkazildi.



Tadbir doirasida Surxondaryo viloyati ichki ishlar organlari hamda qator hamkor tashkilotlar ishtirokida joylarda profilaktik ishlar yanada kuchaytirildi. Asosiy e'tibor oilaviy nizolarni bartaraf etish, huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlarini bartaraf etishga qaratildi.

Xususan, mahallalarda o'tkazilgan 1300 dan ortiq profilaktik

suhatlarda fuqarolarga oilada sog'lom muhitni shakllantirish, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish kabi masalalar yuzasidan atroflicha tushuntirishlar berildi. Shu bilan birga, 900 dan ortiq oiladagi ijtimoiy-psixologik muhit o'rganilib, muammoli vaziyatlar aniqlangan xonadonlarda profilaktik choralar ko'rildi. 4 mingdan ortiq xonadonlarda yashovchi aholining turmush

tarzi, oilaviy munosabatlari va ijtimoiy holati yuzasidan ma'lumot to'plandi. Natijada tadbir davomida notinch oilalardagi bandligi ta'minlanmagan shaxslar bo'yicha mahallalardagi hokim yordamchilariga 572 ta xulosa taqdim etildi.

– «Turmush» maxsus profilaktik tadbiri davomida oilaviy nizolarga barham berishga alohida e'tibor qaratildi, – deydi viloyat IIB JXX

HPB muhim topshiriqlar bo'yicha inspektori, katta leytenant Matluba Po'latova. – Nizoda bo'lib turgan 231 ta oila yarashtirilib, ularda sog'lom muhitni tiklashga erishildi. Shu bilan birga, og'ir ijtimoiy ahvolda tushib qolgan 6 nafar xotin-qiz Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markaziga joylashtirilib, ularga psixologik va ijtimoiy yordam ko'rsatildi. Tazyiq va zo'ravonlik holatlarining oldini olish maqsadida 381 ta himoya orderi berildi.

Tadbir doirasida ichki ishlar organlari ro'yxatida turgan, oila-turmush munosabatlariga oid huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan 1038 nafar shaxsga amaliy yordam ko'rsatildi. Ularning 516 nafariga moddiy yordam berilgan bo'lsa, 522 nafarining bandligi ta'minlandi. Bu profilaktik tadbirlar faqat nazorat emas, balki ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tamoyili asosida tashkil etilganini ko'rsatadi.

Albatta, «Turmush» maxsus profilaktik tadbiri doirasida olib borilgan ishlar mahallalarda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, oilalar mustahkamligini ta'minlashga yordam beradi.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

Sud zalidan

2025-yilning iyul oyi. Yozning issiq, ammo oddiy kechalaridan biri. Laylo Hamidova (ism-shariflar o'zgartirildi) ikki nafar farzandi bilan uyida edi. Turmush o'rtog'i Ozodbek Hamidov esa necha oydirki, oilasini ta'minlash uchun chet elda mehnat qilardi. Masofa uzoq bo'lsa ham, har kuni telefon orqali oilasi bilan bog'lanar, ularning holidan xabar olardi.

O'sha kecha Laylo Hamidovaning telefoniga notanish raqamdan xabar keladi. Charchoqdan horib turgan ayol qisqa javob yozadi: «Yonimda qizim bor, ertalab gaplashamiz». Biroq u xabarni kimga yuborganini o'sha paytda payqamaydi. Aslida bu javob begona raqamga emas, turmush o'rtog'iga yuborilgan edi. Rossiyadagi er esa tun yarmida kelgan bu xabarni o'qib, hayratga tushadi. Qalbida birdan shubha uyg'onadi. «Yonimda qizim bor...» degan jumla uning xayoliga turli fikrlarni soladi. Bir zunda ishonch o'rnini shubha, xotirjamlik o'rnini bezovtalik egallaydi. Shu zahoti ayoliga

qo'ng'iroq qilib, bu xabar aslida kimga yozilganligini surishtirdi. «Bu qandaydir adashmovchilik, shekilli», – dedi titroq ovozda Laylo.

Ozodbek ertasi kuni voyaga yetmagan o'g'li Nodirbekka qo'ng'iroq qilib, onasining telefonini olib qo'yishini tayinladi. Nodirbek ham anoyilardan emas. Layloning qo'lidagi telefonini olib qo'yarkan, undagi ma'lumotlarni ko'zdan kechira boshladi. Bundan asabiylashgan Laylo g'azab otiga mindi:

– Sen o'z onangdan shubha qilyapsanmi?

Shu tariqa, oiladagi muhit buzildi. Ona-bola o'rtasida dahanaki jang boshlandi. Ayol oshxonaga kirib, pichoq qidirdi. Ammo topolmadi. Yuvinish xonasidan piska olib chiqdi. O'g'il bo'ynida achchiq og'riq sezdi.



Hodisa yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jinoyat ishi qo'zg'atildi. Sud jaryonida voyaga yetmagan o'g'il jabrlanuvchi sifati-

da ishtirok etdi. U onasiga nisbatan moddiy yoki ma'naviy da'vosi yo'qligini aytdi, ammo suddan qonuniy qaror chiqarishni so'radi.

Ishni ko'rib chiqqan sud Laylo Hamidovaning harakatlari oilaviy zo'ravonlik natijasida yengil tan jarohati yetkazish, deb baholadi. Sud hukmiga ko'ra, ayol aybli deb topilib, ish haqining 20 foizi davlat daromadiga ushlab qolinganda, 1 yil 6 oy muddatga axloq tuza-tish ishlari jazosi tayinlandi.

– Men buni xohlamagan edim, – deydi u og'ir nafas olib. – O'sha kuni ruhiy holatimni boshqara olmadim. Farzandimga tan jarohati yetkazganim va shu tariqa vijdan azobiga uchraganim menga nisbatan qo'llanilgan qonuniy jazodan ham og'irdir...

Yo'lbars RAHMONOV,
jinoyat ishlari bo'yicha
Qo'rg'ontepa tuman sudi
raisi,
Saminjon HUSANZODA,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.

BIR XABAR IZTIROBI

Ba'zan inson taqdirini o'zgartirish uchun katta fojia yoki uzoq yillik adovat ham shart emas. Gohida birgina noto'g'ri bosilgan qadam, bir lahzalik shubha yoki asabiylik butun oila hayotini izdan chiqarishi mumkin. Qo'rg'ontepa tumanida sodir bo'lgan voqea ham sud zaligacha yetib kelgan og'riqli qissaga aylandi.



ХАСТАЛИКНИНГ ҚЎЛДАГИ АКСИ

Инсон организмнинг ички патологияси ҳар доим ҳам бир хил намоён бўлавермайди. Баъзи касалликлар яширин ҳолда ривожланади. Шу боис кўпгина мутахассислар беморни кўриқдан ўтказиш чоғида унинг қўл ва бармоқларига ҳам аҳамият қаратишади. Мисол учун, кафтларнинг қизғиш тус олиши жигар заҳарланганидан, сарғайиб кетиши жигар ёки ўт пуфагидаги салбий ўзгаришлардан, майда-майда ёрилиш эса А ва D витамини етишмаслигидан дарак беради. Совуқ қўллар периферик қон айланиши бузилганини, қизиб кетиши эса жигарнинг дори воситалари, спиртли ичимликлар ёки кимёвий моддалардан заҳарланишга қарши кураша олмаётганини билдиради. Жумладан, қўл кўринишидан қуйидаги хасталикларни ҳам аниқлаш мумкин.



Буйрак касалликлари. Буйраклар фаолиятидаги салбий ўзгаришларни тирноқ рангининг ўзгаришидан билиш мумкин. Мутахассислар ўтказган тадқиқот натижалари кўрсатганидек, тирноқлар юқори қисми рангининг жигарранг тус олиши тахминан 36 фоиз ҳолатда буйракларнинг касалланиши билан боғлиқ.

Камқонлик. Анемиянинг бир қанча кўриниши мавжуд. Уларнинг ҳаммаси организмда барча тана аъзоларини кислород билан таъминловчи соғлом қон ҳужайраларининг етишмаслиги билан боғлиқ. Камқонликнинг илк аломати тери рангининг, биринчи галда, қўллар ва тирноқ остининг оқариб кетишидир.

Жигар хасталиги. Қўл кафтларидаги қизғиш доғлар жигар касаллиги ривожланаётганидан дарак беради. Шунингдек, буни ҳатто совуқ об-ҳаво шароитида ҳам қўлларнинг қизиб кетишидан билиш мумкин.

Артрит (бўғинларнинг яллиғланиши). Кекса ёшга етганда остеоартрит билан касалланиш хавфи қанчалик юқори эканини билмоқчимисиз? Кўрсаткич ва ўрта бармоқ узунлигини ўлчаб, уларни таққосланг: агар ўрта бармоқ кўрсаткич бармоқдан узун бўлса, бу хавф икки барабар юқори. Одатда, ўрта бармоқ узунлиги эстроген гормони даражаси пастлиги билан боғлиқ бўлиб, тизза артрити ҳам у туфайли юзага келади.

Юрак хасталиклари. Сизда ушбу хасталиклар билан оғриш хавфи бор ёки йўқлигини аниқлаш учун оддий синов ўтказинг: ёнин-гиздаги инсоннинг қўлини қисинг ва ундан қўл сиқиш кучингизни баҳолашни сўранг. Бунга ишониш қийин, лекин ўтказилган бир қатор тадқиқотлар ушбу куч юрак саломатлигини аниқлашда ҳатто қон босими даражасидан кўра ишончли усул эканини тасдиқлади. Шифокорларнинг айтишича, ҳамма гап мушакларнинг умумий кучида. Шу сабабдан, қўл сиқиш кучингиз қанчалик заиф бўлса, хасталаниш хавфи шунчалик юқори.

Паркинсон касаллиги. Қўлдаги титроқ ўта арзимас сабаблар

туфайли юзага келиши мумкин. Масалан, бунга баъзи антидепрессант воситалар ва астмани даволаш учун қўлланиладиган дори-дармонлар сабаб бўлади. Шунингдек, қўллар титраши истеъмолда кофеин моддаси меъеридан ортиб кетганда кузатилади. Аммо агар титроқ тобора кучайиб бораверса, бу Паркинсон касаллигининг илк аломатлари ҳисобланади. Ушбу ҳолатда зудлик билан тегишли шифокорга мурожаат қилиш мақсадга мувофиқдир.

Илҳом НАВРЎЗОВ,
Тошкент шаҳар ИИББ Тиббиёт бўлими поликлиникаси бошлиғининг ўринбосари, капитан.

МАВСУМИЙ АЛЛЕРГИЯ

Баҳор – гоҳ офтоб чарақлаган, гоҳ илиқ ёмғирларга бой бўлган, табиат уйғониб, кўнгилларга ёқимли ҳислар бахш этган фасл. Лекин атроф-олам яшариб, гулларга бурканадиган бу давр аллергия хасталиги кучаядиган кишилар учун қийин палла. Кўкламда чинор, сарв, қайин, эман, қайрағоч, тол, қарағай, қора терак, шумтол каби дарахтлар ва турли ўсимликларнинг гуллаши иммун тизими заиф баъзи инсонларда аллергияга мойилликни келтириб чиқаради.

Аллергия, асосан, экологик муҳит, ирсий мойиллик, нафас йўллари сурункали касалликлари, паст иммунитет, зарарли шароитда ишлаш, овқат ҳазми бузилиши, нотўғри овқатланиш, кўп чекиш туфайли келиб чиқади. Аксарият ҳолларда бурун битиши ва оқиши, тери тошмалари, қичишиш, тумов, йўтал ва аксиреш, кўзлар ачишиши ва ёшланиши билан кечади. Аллергия ҳар бир бемор учун индивидуал хусусиятга эга бўлиб, бу касаллик шакли, босқичи, намоён бўлиш даражаси (енгил, ўрта, оғир), аллерген тури ва организмнинг умумий ҳолатига боғлиқ.

Агар аллергияга мойиллигингиз бўлса, бундай пайтда:

- * табиат қўйнига (айниқса, шамолли кунларда) камроқ чиқинг;

- * имкон қадар ёмғирли об-ҳавода ёки оқшом маҳали сайр қилинг;

- * бурун учун махсус филтер, ниқоб ва қуёшдан ҳимояловчи кўзойнақдан фойдаланинг;

- * ҳар бир сайрдан сўнг кийимларни алмаштириб,



ювинг, чунки улар юзасида гул чанглари тўпланиб қолган бўлиши мумкин;

- * уй эшик ва деразаларини зич ёпган ҳолда ҳаво тозаловчи тизимни ишга туширинг;

- * аллергия чақирувчи маҳсулотларни таомномангиздан чиқариб ташланг;

- * даволаниш ва профилактика учун доривор ўсим-

ликлардан ўзбошимчалик билан фойдаланманг, чунки уларнинг ҳатто энг зарарсиз турлари ҳам бошқа ўсимликларнинг аллерген чанглари-ни ташиши мумкин.

Салбий оқибатларнинг олдини олиш учун касаллик ривожланишига йўл қўймаслик ва уни келтириб чиқарувчи омилларни бартараф этиш жуда муҳим. Баҳор аллергияси кўп учрайдиган муаммо бўлса-да, эҳтиёт чораларини тўғри қўллаш ва даволаниш орқали уни назорат қилиш мумкин. Агар ўзингизда гуллар чангига аллергия аломатларини ва соғлигингиз ёмонлашаётганини сезсангиз, дарҳол шифокорга мурожаат қилиб, бу борада тўлиқ маълумот ва тавсиялар олинг.

Гулшод АДИЛОВА,
Тошкент шаҳар ИИББ Тиббиёт бўлими бошлиғи, подполковник.

«ИЛИК УЗИЛДИ» БОШЛАНДИ бу даврда нималар қилиш лозим?

Юртимизда қиш тугаб, илиқ баҳор фасли бошланди. Айни шу паллада кўпчилик инсонларда ҳолсизлик ва руҳий толиқиш оддий тилда айтадиган бўлсак, «илик узилди» кузатилади. Кўпчиликни ланжлик, уйқучанлик, тушкунлик ва бош оғриғи қийнайди.



Юз-қўл териси қуриб, ёрилади. Кўз тагида кўкимтир излар пайдо бўлади, кўриш қобилияти пасаяди. Соч тўкилиб, тирноқлар мўртлашади. Бу организмда моддалар алмашинуви тезлашиши, витаминларга бўлган эҳтиёж ортиши билан боғлиқ.

Шунинг учун витаминлар, минераллар, озуқали моддалар ва ўсимлик толаларига бой озиқ-овқатлар тановул қилиш керак. Қолаверса, баҳор фаслида кўкатли таомлар, сабзавотлар истеъмол қилиш мақсадга мувофиқ. Чунки улар таркибида организм учун зарур бўлган С витамини, озуқа толалари, биофлавоноидлар, антиоксидантлар мавжуд. Айниқса, исмалоқ, ялпиз, мадор, отқулоқ, жағ-жағ каби гиёҳлардан тайёрланган таомлар танада моддалар алмашинувини ва ошқозон-ичак тизими фаолиятини яхшилайд.

Шунингдек, қишда заифлашган организм А, В, Д ва Е витаминларига муҳтож бўлгани сабабли, уларнинг ўрнини тўлдириш учун ёнғоқ, гўшт, балиқ, қаймоқ, товорог, майиз, бодом ва асал ейиш лозим. Тушлик ва кечки овқатда эса кўпроқ ёғсиз ва тез ҳазм бўлувчи овқатлар истеъмол қилиш мақсадга мувофиқ.





ИСЛОМ ЦИВИЛИЗАЦИЯСИ МАРКАЗИ



МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ

(23 – 29 март)

Қўй (21.03 – 20.04). Бу ҳафта сиз учун омадли келади. Бундан унумли фойдаланган ҳолда иш жойида ва оила орасидаги муносабатларни яхшилаш ва мустаҳкамлашга ҳаракат қилинг. Ўз ташаббусингиз билан кўнгилсизликларни оқилона бартараф этишга ҳаракат қилинг.

Бузоқ (21.04 – 20.05). Бу ҳафта соғлиққа жиддий эътибор қаратиб, турли механизмларни бошқаришда ўта эҳтиёткор бўлиш лозим. Ҳозирча ишдаги катта ютуқларга умид қилманг. Жума куни ташвишланиш ва хавотир ҳисси юзага келиши мумкин. Лекин дам олиш кунлари яхши кайфият ва молиявий тушумларни ваъда қилмоқда.

Эгизаклар (21.05 – 21.06). Оилада муносабатлар бироз мураккаблашиши кутилмоқда. Сиз очик ва мурасиз ҳаракат қилсангиз ҳам яқинларингиз бунга тайёр бўлмайди. Уларга асоссиз эътирозлар билдиришдан тийилинг, акс ҳолда жиддий низо юзага келиши мумкин. Бу ҳафта олдингизга катта мақсадлар қўйманг.

Қисқичбақа (22.06 – 22.07). Бу ҳафта тақдирингизда ижобий ўзгаришлар кузатилиши мумкин. Асосийси, иложи борица кайфиятингизни туширмасликка ҳаракат қилинг. Бу мавқеингиз билан боғлиқ муаммоларни ҳал этишда зиён етказиши мумкин. Тадбиркорлар учун молиявий масалалар осонлик билан ҳал этилади.

Арслон (23.07 – 23.08). Сизни иккиланиш, ишончсизлик ҳисси бироз қийнаб, бу ишда ҳам, шахсий ҳаётда ҳам фақат тўсиқлар яратиши мумкин. Ўзингизга ишонган ҳолда таваккалчилик билан мақсадга эришинг. Эндигина иш фаолиятини бошлаганлар учун бу давр муваффақиятли кечади.

Паризод (24.08 – 23.09). Бу даврда мустақил ва ташаббускорлик билан ҳаракат қилиш истаги кучаяди. Аммо олдингизга янглиш мақсад қўйишдан, нотўғри йўналиш бўйича боришдан эҳтиёт бўлинг. Хатоларга йўл қўймаслик учун шу кунларда бироз пассив бўлинг.

Тарози (24.09 – 23.10). Ҳафта давомида ишларингиз бароридан келиши кутилмоқда. Бу кайфиятга ижобий таъсир кўрсатмай қолмайди, албатта. Вақтдан унумли фойдаланган ҳолда, йирик лойиҳаларни ҳаётга татбиқ этиш учун имкониятингиз бор. Шунингдек, бу ҳафта хайрия тадбирлари ва ижодий мукамалликка эришиш учун қулай палла.

Чаён (24.10 – 22.11). Ҳафта давомида яна пул муаммоси юзага келиши мумкин. Ишлар изига тушгач, муаммолар унутилади. Бундан кейин турли харажатларни қисқартирганингиз маъқул. Ҳафта мобайнида қаттиқ меҳнат қилишга тўғри келса ҳам дам олиш ёдингиздан кўтарилмасин.

Ўқотар (23.11 – 21.12). Келаси ҳафтада ёмон ниятли кишилардан узоқроқ юришга ҳаракат қилинг. Сизга яхши муносабатда бўлмаганлар режаларингизга жиддий таъсир ўтказишлари мумкин. Қанчалик тўғри ҳаракат қилсангиз, ишлар шунчалик омадли кечади.

Тоғ эчкиси (22.12 – 20.01). Ҳафта бошида эҳтиёткор бўлинг. Бир қанча маблағни йўқотиб қўйишингиз мумкин. Ҳафта ўрталарига бориб ҳужжатлар билан боғлиқ муаммо юзага келиши эҳтимоли юқори. Бироқ ҳамкасбларингиз ёрдами билан бу муаммони бартараф этишга эришасиз.

Қовға (21.01 – 19.02). Яқинлар, ҳамкасблар орасидаги келишмовчилик тезда барҳам топади. Оила аъзолари билан иложи борица илиқ ва самимий муносабатда бўлишга эътибор қаратинг. Дам олиш кунлари дўстларингиз меҳмон бўлиб келиши мумкин. Бирор муҳим қарор чиқаришдан олдин энг яқин одамингиз билан маслаҳатлашиб олинг.

Балиқ (20.02 – 20.03). Сиз учун ўта муҳим ҳафта. Бу даврда сиз ўзингиз учун янги дўстлар орттирасиз. Ҳатто энг ушалмас бўлиб туюлган орзуларингиз ҳам рўёбга чиқиши эҳтимоли бор. Ҳафта давомида қўл қовуштириб ўтирмасдан, ишга жиддий киришсангиз, кўп нарсага эришиш ҳеч гап эмас.



Xizmatlarda

CHORVADORLAR HUZURIDA

Shu kunlarda Jizzax viloyatida Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi hududiy bo'limlari xodimlari tomonidan keng ko'lamli profilaktik emlash ishlari olib borilmoqda. Jarayon viloyat IIB JXX JTSB Karantin tadbirlarini ta'minlash guruhi xodimlari bilan hamkorlikda tashkil etilgan.

Mutaxassislar tomonidan aholi xonadonlarida parvarish qilinayotgan chorva mollari – qoramol, qo'y, echki, shuningdek, uy hayvonlari ko'rikdan o'tkazilib, ularning turli yuqumli kasalliklarga qarshi profilaktik emlanishi ta'minlanmoqda. Bu jarayon qat'iy sanitariya-veterinariya talablariga amal qilgan holda amalga oshirilayotir. Veterinariya mutaxassislari tomonidan olib borilayotgan emlash tadbirlari jarayonida aholiga chorva mollari va uy hayvonlarini to'g'ri parvarish qilish, ularni vaqtida emlatish, kasallik alomatlari kuzatilganda darhol veterinariya mutaxassislari murojaat qilish zarurligi yuzasidan tushuntirish ishlari ham olib borilishi nazoratga olingan.

Shuningdek, hayvonlardan odamlarga yuqishi mumkin bo'lgan kasalliklar, ularning oldini olish choralariga oid targ'ibot ishlari ham tashkil etilmoqda.

Ma'lumki, ayrim yuqumli kasalliklar nafaqat hayvonlar o'rtasida tez tarqaladi, balki inson salomatligi uchun xavfli hisoblanadi. Jumladan, quturish, Sibir yarasi, brutsellyoz kabi kasalliklar hayvonlardan odamlarga yuqishi mumkin. Shu bois bunday kasalliklarning oldini olishda profilaktik emlash eng samarali choralaridan biri ekani xodimlarimiz tomonidan chorvadorlar va aholiga tushuntirilmoqda.

Eldor BOBOMURODOV,
mayor.

Jizzax viloyati.



«Nurli maskan» hayotidan

IMKONIYAT VA E'TIBOR UYG'UNLIGIDA

Samarqand shahridagi 59-son «Nurli maskan» maktab-internatida Koreyadan keltirilgan «DOT-PA-DE» uskunasi yordamida o'qitishning yo'lga qo'yilgani bolalarning qo'l sezgilarini ortishi va jismlarning shakli haqida tez tasavvurga ega bo'lishida muhim rol o'ynamoqda. Bunday interaktiv tizim ularda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va masalaga ijodiy yondashish ko'nikmasini ham shakllantirmoqda.



Qariyb uch yildirki, maktab-internat uchun kompyuter jihozlari sotib olinyapti. Birgina 59 million so'mlik maxsus kompyuter va Brayl alifbosiga mo'ljallangan printer xarid qilingani fanlar kesimida yetishmayotgan darsliklarni chop etish imkoniyatini yaratib, darsliklar muammosiga chek qo'ydi. Bundan tashqari yaqinda Germaniyadan qimmatbaho displey olib kelindi. Katta xotiraga ega bu zamonaviy uskuna o'quvchilar uchun «yon daftarcha» vazifasini o'tayapti. O'quvchi undagi yozuvlarni xohlagan paytda ochib o'qishi, keraksizlarini esa o'chirib tashlashi mumkin. O'tgan yili kutubxonaga 8 dona kompyuter o'rnatildi. Bu yil esa 80 million so'mlik kompyuter xarid qilishni rejalashtirganmiz, – deydi maktab-internat direktori Abduhalim Meliyev. – Yaqinda ovozga jilo beruvchi zamonaviy kompyuter va zarur qurilmalardan iborat ovoz studiyasi o'rnatildi. Studiya uchun 36 million so'm turadigan maxsus jihozlarni esa maktab jamoasi grant asosida qo'lga kiritdi.

Darhaqiqat maktab-internatda har qaysi pedagog va har bir ta'lim jarayoni bolalarni kelajakka tayyorlashga qaratilgan. O'quvchilar ko'zi ojizlar uchun maxsus NVDA, BEME EIAS, YNIGRAM va har qanday

matnni Brayl alifbosiga o'g'irib beradigan DAKSFER dasturlaridan foydalanishmoqda. Bular o'quvchilarning ekrandagi elektron mavzularni ovozli ta'riflar orqali tinglash va tushunish qobiliyatini rivojlantirishga katta yordam beryapti. O'quvchilar bunday darslarda nafaqat tinglaydi, balki savol-javoblar orqali o'z fikrlarini ham ifoda etyapti.

Jumladan, E'zoza, Azima, Malika kabi maktabning a'lochi o'quvchilari ushbu maxsus dasturlardan unumli foydalanib, ko'proq axborot olishga erishmoqdalar. Kutubxonadagi kompyuterlarga o'rnatilgan ovozli dasturlardan foydalanib, turli mavzulardagi elektron kitoblarni planshetlariga yuklab olib, mutolaa qilishmoqda.

Maktab pedagoglari raqamlashtirish va innovatsion usullardan foydalangan holda ko'zi ojiz bolalarning bilim olish jarayonini samarali va qiziqarli tashkil etmoqda. Albat, bunday imkoniyatdan foydalangan holda har bir o'quvchiga individual yondashuv va alohida e'tiborni kelajakka qaratilgan g'amxo'rlikning amaldagi ifodasi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

Navro'z — 2026

BAYRAM OSOYISHTA O'TADI



Yasharish va yangilanish ayyomi — Navro'z umumxalq bayrami arafasida Ichki ishlar vazirligida shaxsiy tarkibning tantanali saf ko'rigi o'tkazildi. Yurtimizdagi bayram shodiyonalarini yuqori saviyada va tinch-osoyishta o'tkazish maqsadida tashkil etilgan ushbu tadbirda xodimlarning xizmat intizomi, kiyinish madaniyati va jangovar shayligi ko'zdan kechirildi. Har bir xodim zimmasiga bayram kunlari yurtdoshlarimizning xavfsizligini ta'minlash va mas'uliyat bilan xizmat qilish vazifasi yuklanib, shaxsiy tarkibga bayram oldi ko'rsatmalari berildi.

O'z muxbirimiz.



Jarayon

RUHIY TETIKLIK OMILI

Har haftaning seshanba va shanba kunlari ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibi uchun o'zgacha boshlanadi. Negaki, shu kunlarda saf maydonlari va sport zallarida o'tkaziladigan mashg'ulotlar shunchaki jismoniy harakatlar majmuasi emas, balki xodimning har qanday murakkab vaziyatda tezkor qaror qabul qila olish qobiliyatini shakllantiradigan hayotiy ehtiyojga aylanadi.

– Hozirgi kunda shaxsiy tarkibga sohaviy xizmatlar bo'yicha belgilangan sport zallarida qo'l jangi, karate, boks, stol tennisi, voleybol, yengil atletika kabi o'nlab sport turlari bilan shug'ullanish uchun zarur sharoitlar yaratilgan. Xodimlarga malakali murabbiylar birlashtirilgan, – deydi IIV Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar



bilan ta'minlash departamenti Jismoniy va jangovar tayyorgarlikni tashkil etish boshqarmasi Jismoniy tayyorgarlik va sport bo'limi muhim topshiriqlar bo'yicha inspektori, mayor Jasur Tog'ayev.



Vazirlik tizimida xizmat faoliyatini olib borayotgan har bir xodimdan sport bilan muntazam shug'ullanish talab etiladi. Ayni shu maqsadda shaxsiy tarkibni mashg'ulotlarga to'liq jalb qilish uchun joriy etilgan shaxsni identifikatsiyalash tizimi (Face-ID) yaxshi samara bermoqda.

Voleybol to'ridagi shiddatli zarbalar, boks zalidagi mashg'ulotlar, yugurish yo'laklaridagi mu-

sobaqalar hamkasblar o'rtasida jamoaviylik ruhini, o'zaro ishonch va do'stlik rishtalarini mustahkamlaydi. Jismoniy barkamollik xodim uchun nafaqat sog'liq garovi, balki kasbiy kamolot poydevoridir. Zero, jismonan baquvvat, ruhan tetik xodimgina Vatan oldidagi muqaddas burchini sharaf bilan ado eta oladi.

Abror POYONOV,
katta mutaxassis-muxbir,
katta serjant.

БОШҚОТИРМА

Азиз муштарий! Жавоблар шаклда белгиланган хонадан соат миллари йўналишида рақам атрофига ёзилади.

1. Боқиладиган сайроқи қуш. 2. Цирк артисти. 3. Ошқўк, хушбўй ўсимлик. 4. Кўклам даракчиси, қуш. 5. Ғуж бўлиб очиладиган кўркам гул. 6. Мевазор ва гулзор, обод маскан. 7. Дала оромгоҳи. 8. Қуйидаги мисралар муаллифи:

*Васли аро қўрдим, тенг эмиш бўйию сочи,
Тун-қун тенг экан, зоҳир ўлур бўлди чу Наврўз.*

9. Дарёнинг шиддатли, шовқин билан оқадиган қисми. 10. Болаларнинг баҳорги, шамол учқичи. 12. Оқ, сариқ рангда очиладиган гул.

Энди шакл атрофидаги рақамларни нуқта билан белгиланган хоналардаги тааллуқли ҳарфлар билан алмаштириб машқни ҳал этинг. Бунда қадимий баҳор байрамига мансуб, Ҳаким ат-Термизий (859–932) номи билан танилган олим ва муҳаддис асари аён бўлади.

Фозилжон ОРИПОВ тузган.



MUASSIS: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI		TELEFONLAR: 71-231-33-88; Obuna masalalari bo'yicha: 71-231-38-74; 97-420-89-24 Web-site: www.postda.uz E-mail: info@postda.uz ISSN 2010-5355 9 772010 535001		Tahririyat hisob raqami h/r 23402000300100001010. Bank kodi 00014. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g'aznachiligi. Shaxsiy h/v 460010860262877031101179003 STIR 200637499. Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro'yxatga olingan. Manziliz: 100070, Toshkent shahri, Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.		Buyurtma № 757. Bosilish – ofset usulida. Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma taboq. 50323 nusxada chop etildi. Obuna raqamlari: Yakka tartibda – 180. Tashkilotlar uchun – 366. Bosishga topshirish vaqti – 22.00. Bosishga topshirildi – 21.00. Sotuvda kelishilgan narxda. «Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: 100206 Yunusobod tumani, Yangishahar ko'chasi 1 ^A -uy.	
Bosh muharrir polkovnik Bernora SADIKOVA	Mas'ul muharrir Erkin SATTOROV						
Bosh muharrir o'rinbosarlari podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV mayor Aziza BOHODIROVA	Veb-dizaynerlar Zokir BOLTAYEV Ilhom JUMANOV Akbar BOLTAYEV Navbatchilar Shuhrat RO'ZIYEV Radik TUMPAROV						